

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. FRANSUZ TILIDA SO'Z TURKUMLARI.	
1.1 Asosiy so'z turumlari.....	7
1.2 Asosiy bo'lmagan so'z turumlari.....	10
Ibobja xulosa.....	10
II BOB. BOG'LOVCHILAR YORDAMCHI SO'Z TURKUMI SIFATIDA VA ULARNING MA'NO VA GRAMMATIK JIHATDAN QO'LLANISHI.....	12
2.1 Fransuz tilida bog'lovchilarning bog'lanish xususiyatiga ko'ra turlari.....	13
2.2 Teng bog'lovchilar.....	15
2.3 Ergashtiruvchi bog'lovchilar.....	25
II bobga xulosa.....	41
III BOB. BOG'LOVCHILI SO'Z VA KONSTRUKSIYLAR	
3.1 Qo'shma bog'lovchilar.....	42
3.2 Bog'lovchili so'zlar.....	56
III bobga xulosa.....	58
XULOSA.....	60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	62

KIRISH

Respublikamiz o'z istiqboliga erishgandan so'ng xorijiy mamlakatlar bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabat kundan-kun rivojlanib bormoqda. Yosh, mustaqil respublikamizga bo'lgan qiziqish o'z aksini xalq xo'jaliklarining hamma jabhalarida topganidek, maorif tizimida ham ulkan ishlar olib borilayotganligi ham fikrimiz dalilidir.

Hozirgi paytda chet tillariga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. O'quvchilar va talabalarga bo'lgan talabchanlik va ma'suliyat yanada oshdi. O'zbekistonning kelajagi buyuk davlat bo'lishi uchun yosh iqtidorli, izlanuvchan, tashabbuskor talabalar kerak. Yurtboshimiz mamlakatimizda xalq xo'jaligining barcha sohalari bo'yicha yuqori malakali kadrlar yetishtirishga, buning uchun zarur sharoitlar yaratib berishga katta e'tibor qaratmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan jahonni qoyil qoldirishi lozim. Mamlakatimiz mard, fidoyi kishilar, mehru-shafqat, muxabbat barqaror bo'lgan tafakkur va ijod qaynagan muqaddas makonga aylanishi kerak.

Hozirgi kunda chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan-kunga oshib bormoqda. Albatta bu davr talabidir. Shuni ta'kidlash lozimki, chet tilini o'qitish jarayoni zamonaviy metodlar hamda yuqori saviyadagi texnik vositalar bilan olib borilmoqda. Yangi ped- texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda".

Mavzuning dolzarbligi. Tadqiqot uchun tanlangan mavzuning dolzarbligi, mazkur ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini tahlil qilar ekanmiz, mamlakatimizda "O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillariga o'qitishning kompleks tizimi ya'ni, uyg'un kamol topgan, o'qimishli,

zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanaga integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratilgani to'g'risida, mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ortiq chet tillar o'qituvchilari tayyorlanganligi umumta'lim maktablarining 5-9 sinflari uchun ingliz, nemis, fransuz tillari bo'yicha multimediya darsliklari, boshlang'ich sinflarida ingliz tilini o'rganish bo'yicha elektron resurslar tayyorlanganligi, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda besh mingdan ortiq lingafon kabinetlari jixozlanganligi, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish va shuningdek, ayrim maxsus fanlarni, texnik va xalqaro mutaxassislar bo'yicha o'qitish chet tillarda olib borilishi ta'kidlangan. Shuningdek, qarorda o'quvchi va talabalar uchun chet tilining dasturlari va darsliklari, maxsus o'quv qo'llanmalar yaratish zarur ekanligi uqtirib o'tiladi. 2013-yilning 1- mayigacha bo'lgan muddatda umumta'lim maktablarining 1-sinfidan boshlab, chet tillari ta'limini uzluksiz joriy etish va ta'limning qolgan barcha bosqichlarida uning davomiyligini nazarda tutuvchi umumta'lim maktablari, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy o'quv yurtlarining yangi o'quv rejalari va dasturlarini tuzish, xalqaro e'tirof etilgan standartlarning talablariga muvofiq chet tillarni bilish darajasini baholashning Milliy Test tizimini ishlab chiqish, chet tillar o'qituvchilariga zarur extiyoji bo'lgan uzoq tumanlarda yashayotgan aholi ichidan mahalliy davlat hokimiyati organlarining tavsiyanomalari asosida chet tillar o'qituvchilari ixtisosligiga Oliy ta'lim muassasalariga maqsadli qabulni amalga oshirish ta'kidlanadi. Shuningdek, 2013-2016 yillar mobaynida ta'lim muassasalari xorijiy tillar kabinetlarini zamonaviy axbarot kommunikatsiya va texnik vositalar bilan jixozlashtirishning jadallashtirilgan dasturini ishlab chiqish, shuningdek, mahalliy telekanallar orqali bolalar va yoshlarni xorijiy tillarga o'rgatish bo'yicha ko'rsatuvlar tayyorlash va ularni translatsiya qilish kabi bir qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Shu bilan birga ingliz tilida

o'quv va badiiy adabiyotlar, ixtisoslashtirilgan rasmlar bilan bezalgan gazeta va jurnallarni nashr etish va ularga maxsus ruknlar hamda ilovalarni tashkil etish kabi amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar to'g'risida uqtirib o'tilgan.

Prezident I. Karimovning qarorda keltirilgan fikrlari asosida chet tillarni puxta va chuqur o'rgatmoq uchun yaxshi dastur, mukammal darslik, sifatli o'quv qo'llanmalar, zaruriy texnik vositalar va albatta iqtidorli, yuksak mahorat, nazariy- metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar kerak¹.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda fransuz tilida yordamchi so'z sifatida qo'llaniladigan bog'lovchilar (Conjonction) to'g'risida fikr yuritamiz. Fransuz tilida asosiy va asosiy bo'lmagan so'z turkumlari to'g'risida to'xtalib, Conjonction lar yordamchi so'zlar (ya'ni asosiy bo'lmagan) so'z turkumlariga kirishi va ularning gapda ishlatilish funksiyalari to'g'risida fikrlar bildirilib, keltirilgan faktik misollarda ko'rsatib o'tamiz.

Mavzuning o'rganganlik darajasi. Ishimizning metodologik asosini dialektika fanining til- ob'ektiv tarzda mavjud bo'lgan borliqni to'g'ri va haqqoniy aks ettiruvchi moddiy tomoni, qobig'i ekanligi, umumiylik va xususiylik, butun bo'lak dialektikasi haqidagi ta'limot tashkil etadi.

Ushbu metodologik ta'limotga ko'ra voqelikda berilgan har bir narsa ong orqali tilda o'z aksini topishi zarur va aksincha tilda mavjud bo'lgan har qanday lisoniy hodisa borliqda o'z asosiga ega bo'lmog'i shart. Shuni ta'kidlash lozimki, har qanday til borliqning ko'zgusidagi aksi emas, balki o'ziga xos alohida xususiyatlarga ega bo'lgan murakkab bir sistemadir. Bu so'zsiz har bir tilda mavjud va ishlatiladigan grammatik konstruksiyalarga ham bog'liq.

¹“Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2012-yil 10-dekabr. Toshkent.

Tadqiqot ob’ekti. Olib borilgan tadqiqotimizning obekti qilib, fransuz tili nazariy grammatikasi asoschilaridan: V. G. Gakning “Fransuz tili nazariy grammatikasi” Moskva 1984; Damourette J et Pichon E. “Essai de grammaire de la langue française” édition 1971. Paris; A. Martinet “Grammaire structurale du français moderne” P. 1970; “Grammaire Larousse du français contemporain. 1964; Трудности перевода с французского языка на русский (Сборник статей) Изд. АкадемииНаук. Москва 1959; hamda A. Dumas “Le comte de Monte Cristo troisieme édition. Moscou 1963; “Graf Monte Krisrto” ruschadan T. Rustamov tarjimasi. Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti 1974, 696 bet, Birinchi kitob kabi ishlar va asarlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, mavzuning ilmiy xulosalaridan, amaliy natijasidan fransuz tili nazariy grammatika fanidan maxsus kurs o’tishda hamda fransuz tili nazariy grammatikasining amaliy mashg’ulotlarida, qolaversa, o’quv- uslubiy qo’llanmalar yaratishda foydalanish mimkin.

Ishning tuzilishi. Tadqiqot oldiga qo’yilgan muammolar yechimiga asosan, izchil ketma-ketlik asosida, kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iboratdir.

IBOB.

FRANSUZ TILIDA SO'Z TURKUMI

1.1 Asosiy so'z turkumlari.

So'zlarning lug'aviy va grammatik ma'no jihatdan o'xshashligiga ko'ra ayrim leksik - grammatik guruhlariga ajratilish **so'z turkumlari** deyiladi. So'zlarni turkumlarga ajratishda ularning grammatik ma'nolari bilan bir qatorda, lug'aviy ma'nosi ham asosiy belgilardan hisoblanadi. Ham grammatik, ham leksik ma'nolarga ega bo'lib, gapda mustaqil sintaktik bo'lak sifatida ishtirok etadigan so'zlar mustaqil so'zlar deyiladi. Mustaqil so'zlarga: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish kiradi. Shuni ham ta'kidlash joizki, tilimizdagi ba'zi mustaqil so'zlar ham nutq jarayonida o'zining mustaqil lug'aviy ma'nosini yo'qotib, grammatik ma'no ifodalashga xoslangan holda, yordamchi so'z vazifasiga o'tishi mumkin. Bu hodisa tilshunoslikda grammatikalizatsiya deb yuritiladi.

Mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmaydigan, gap bo'lagi vazifasini bajara olmaydigan, biroq so'z va gaplarni o'zaro bog'lash yoki ularga qo'shimcha ma'no nozikligi kiritish (yuklash) uchun xizmat qiladigan so'zlar yordamchi so'zlar deyiladi. Yordamchi so'zlar umumiyvazifalarga ko'ra uch turli bo'ladi: 1) ko'makchi; 2) bog'lovchi; 3) yuklama.

Undov, taqlid va modal so'zlar esa, yordamchi so'zlarning alohida guruhini tashkil etadi.

Ko'rinadiki, so'zlarni turkumlarga ajratishda, birinchidan, lug'aviy ma'no, ikkinchidan, morfologik shakl, uchinchidan, biror sintaktik vazifa bajarish xususiyati, to'rtinchidan, qo'llanish qurshovi (distributsiyasi) e'tiboridan kelib chiqiladi. Shunga ko'ra so'zlarning hozirgi o'zbek tilidagi turkumlari: 1) ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish kabi mustaqil so'zlar; 2) ko'makchi, bog'lovchi, yuklama kabi yordamchi so'zlar; 3) modal so'zlar, taqlid so'zlar, undov so'zlar kabi alohida yordamchi so'zlar guruhidan iborat.

Inson ko'rgan, eshitgan va his qilgan narsalarini turlarga, guruhlariga ajratadi. Turlarga guruhlariga ajratish doimo qiyoslash orqali amalga

oshiriladi. Qiyoslash natijasida borliqdagi narsa, kimsa hodisa va hokazolarning asosiy xususiyatlari aniqlanadi va ular haqida tushunchalar hosil bo'ladi. Bu tushunchalar tilning asosiy birligi bo'lgan so'zlarda o'z ifodasini topadi. Demak, so'zlar eng avvalo anglatgan tushunchalariga ko'ra ma'lum turkumlarga bo'linadi.

So'zlarni turkumlarga ajratish antik davrlardan boshlangan. Antik davr olimlari so'zlarni morfologik belgilariga ko'ra quyidagi turkumlarga ajratadi: a) turlanadigan so'zlar; b) tuslanadigan so'zlar; c) shakl o'zgartirmaydigan so'zlar.

Sharl Balli so'z turkumlarini ajratishda ularning umumiy ma'nolarini, leksik kategoriyalarini asos qilib olgan. J. Galishe aynan shu g'oyalarni rivojlantirib, so'zlarning quyidagi kategoriyalarini ko'rsatadi:

- mustaqil so'z turkumlari;
- tobe so'z turkumlari;
- bog'lovchi so'z turkumlari: bog'lovchi va predloglar.

Shunday qilib, J. Galishe sakkizta so'z turkumini ko'rsatadi. Bu klassifikatsiyaning ijobiy tomoni shuki, so'z turkumlari o'rtasida iyerarxik munosabatlar o'rnatiladi: mustaqil so'zlar ichida bosh va tobe so'zlar, yordamchi so'zlar ichida bog'laydigan va aktuallashtiradigan so'zlar ajratiladi.

A.Sovajo so'zlar ma'nolariga tayanadigan an'anaviy so'z turkumlari nazariyasini tanqid qilib, so'zlarni uchta katta sinflarga ajratadi:

- 1) Ot va sifatlarni o'z ichiga olgan sinf.
- 2) Sub'yektni ko'rsatuvchilar oldidan keladigan so'zlar fe'l bo'ladi.
- 3) Yuklamalar: a) otning determinativlari; b) boshqaruvchilar; c) birlashtiruvchilar (bog'lovchilar).

Sovajo ta'limotining ahamiyatli tomoni shundaki, unda mustaqil va yordamchi so'zlar bir-biridan farqlanadi. Ammo, bu nazariyada o'ziga xos distributsiyaga ega bo'gan olmoshlar, ravishlar va yuklamalar nazardan chetda qoladi. Kezi kelganda shuni aytish kerakki, so'zlarni turkumlarga

ajratishda Sovajo haqiqatga yaqinroq mezonlardan foydalansada, o'zi tanqid qilgan tasniflash nazariyasi erishgan natijalarni takrorlaydi¹.

Mashhur nazariyotchi olim, tilshunos V. G. Gak grammatik nazariyalardagi fikrlarni quyidagicha sharhlaydi:

- a) so'z turkumlari – tilda ob'yektiv mavjud narsa, ulardan yuz o'girib bo'lmaydi;
- b) so'z turkumlariga bitta emas bir nechta mezonlar asosida ajratilishi lozim;
- c) so'z turkumlarining o'rtasida iyerarxik munosabatlar yotadi;
- d) har qanday tasnif “nisbiy”, zero tilda o'zgaruvchan, murakkab va yagona hodisalar ko'p; so'z turkumlari tasnifi 100 foiz fransuz so'zlarini qamrab olmasa ham, “so'z turkumi” tushunchasidan voz kechishi kerak emas².

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan shu narsa aniq bo'ladiki, barcha tilshunoslar so'zlarni avvalo mustaqil va mustaqil bo'lmagan turlarga bo'ladi. So'zlarni to'rtta asosiy turkumlari barcha nazariyalarda, har xil nomlar bilan bo'lsada, e'torof etiladi va so'z turkumlarini tasniflashda ular o'rtasidagi iyerarxik munosabatlarga tayaniladi.

Yuqorida nomlari tilga olingan tilshunoslarning fikricha, so'zlarning turkumlarga ajratishda turli xil mezonlardan foydalanish an'anaviy talqin va tasnifning eng katta kamchiligi hisoblanadi. Ammo, V. G. Gakning to'g'ri ta'kidlashicha, aynan shu narsa an'anaviy so'z turkumlari nazariyasining ijobiy tomonini tashkil qiladi: chunki kategorial-semantik, formal- morfologik, funksional-sintaktik xususiyatlar bir-biriga chuqur ildizlar bilan bog'langan va bir manbaga - so'zning imkoniyatiga borib taqaladi. Shuning uchun ham muayyan so'zni muayyan turkumga kiritishning asosida uning nomlash (nominatsiya) xususiyati yotadi³.

¹ Sauvageot 1962 Sauvageot A. Francais ecrit, francais parle. P., 1962.

² Гак 1986: Теоретическая грамматика французского языка. 1 часть. ст 58. Морфология. М. 1986 . ст 58.

³ Гак 1986: Теоретическая грамматика французского языка. 1 часть. ст 58. Морфология. М. 1986

1.2 Asosiy bo'lmagan so'z turkumlari.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, asosiy so'z turkumlariga ot, fe'l, sifat, ravish va son kiradi. Ularning morfologik aspekti umumkategorial ma'noga ma'lum darajada aloqador bo'lgan grammatik kategoriyalar majmuasidan iborat.

Asosiy bo'lmagan (yordamchi) so'z turkumlarining safi asosiy so'z turkumlarinikidan jipsroq va ular aniq chegaralarga ega, shuning uchun

ham yangi olmosh, predlog va undovlar yangi ot va fe'llar kabi ha deganda yasalavermaydi.

Fransuz tilida yordamchi so'zlarning 6 guruhi borligi nazariy grammatikalarda qayd etiladi. Ular quyidagilar: mustaqil ishlatilmaydigan olmoshlar; determinativlar; fe'l- bog'lamalar; predloglar; bog'lovchilar; yuklamalar. Yordamchi so'zlar gapda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Yordamchi so'zlar boshqa leksik birliklarning sintaktik formalarini yasashga, ularning nutqda aktuallashishiga, gap bo'lagi bo'lib kelishiga xizmat qiladi. Yordamchi so'zlar bu jihatlari bilan grammatik morfemalarga o'xshab ketadi. Atikllar, fe'l-bog'lamalar va predloglarning funksiyalari aynan shulardan iborat.
2. Yordamchi so'zlar gap bo'lagi sifatida mustaqil so'zlarni almashtiradi yoki to'ldiradi. Bunday hollarda yordamchi so'zlar gapning muayyan bo'lagi bo'lib keladi.
3. Yordamchi so'zlar gap bo'laklari va gaplar o'rtasida bog'lama vazifasini bajaradi. Predlog va bog'lovchilar shunday funktsiyani bajaradi.

I bobga xulosa

Biz ushbu bobda so'z turkumlarini umumiy ta'rifi va leksik, grammatik xususiyatlariga mulohazalarni keltirdik. So'z turkumlarini mustaqil so'z turkumlari, yordamchi so'z turkumlari va alohida olingan so'zlar guruhiga ajratdik. Yordamchi so'z turkumlarini ham, o'z navbatida, uch turga bo'ldik.

Bo'g'lovchilarni esa ana shu yordamchi so'zlar turkumiga kiritdik. Bundan tashqari asosiy so'z turkumlari vaasosiy bo'lmagan so'z turkumlarining aniq vazifalari haqida so'z yuritdik.

Mashhur tilshunos olimlar, jumladan, Sharl Ballining so'z turkumlarini ajratishdagi fikrlarini, tilshunos J. Galishening esa so'z turkumlarini bir nechta kategoriyalarga ajratganini keltirib o'tdik. A. Sovajo esa so'z turkumlarini uchta katta sinfga ajratganini, nazariyotchi olim V.G. Gakning esa grammatik nazariyalar haqidagi bir nechta sharhlarini keltirdik. Asosiy bo'lmagan so'z turkumlari ichidan bog'lovchilarni gapdagi vazifalari va funksiyalarini ko'rdik. Demak, bog'lovchilar mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmagan, lekin grammatik ahamiyatga ega bo'lgan yordamchi so'z turkumi hisoblanadi.

II BOB
BOG'LOVCHILAR YORDAMCHI SO'Z TURKUMI
SIFATIDA VA ULARNING MA'NO VA GRAMMATIK
JIHATDAN QO'LLANILISHI.

Bog'lovchilar orqali birikkan gaplar bog'langan qo'shma gaplar deb yuritiladi va ular o'zaro teng bog'lovchilar yordamida birikadi, mazmuni va tuzilishiga ko'ra bir butunlikni tashkil etgan qo'shma gap turlarini hosil qiladi.

Bog'lovchilar orqali birikkan qo'shma gapni boshqa gap qurilmalaridan farqlab turuvchi asosiy grammatik belgi ularni tashkil etgan qismlarini bir-biriga bog'lovchi vositalardir. Bog'lovchili qo'shma gaplar payt, qiyoslash, sabab- natija, izohlash va ayirish munosabatlari bilan ifodalanadi. Bu xil bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarda bog'lovchilarning ishlatilishigina emas. Bu farq yana ayirish mazmun munosabatining keng qo'llanishida, sabab va natija mazmun munosabatini ifodalovchi gap qurilmalarining mustaqilligida va har bir mazmun munosabati ichida o'ziga xos mazmun turlarining ifodalanishida ko'rinadi.

Bog'lovchili bog'langan qo'shma gap qismlari orasida turli mazmun munosabatlarining ifodalanishida shu qismlar tarkibidagi gap bo'laklarining ma'nosi va joylashishi, ularning mazmunan va grammatik jihatdan o'zaro munosabati, ayrim bog'lovchi so'zlarning qo'llanishi, gaplarning ohangi kabi omillar asosiy rol o'ynaydi. Masalan: Bog'lovchili qo'shma gap qismlarida ma'nosi bir-biriga zid so'zlar va shakllarning qo'llanilishi qiyoslash-zidlash va ayirish mazmun munosabatini keltirib chiqaradi. Masalan: *En se retournant l'armateur vit derrière lui Danglars, qui, en apparence, semblait attendre ses orders, mais qui, en réalité, suivait comme lui le jeune marin du redard. (Le comte de Monte - Cristo, page 11).* (Armator alanglab, orqasida turgan Danglarni ko'rib qoldi, Danglar

go'yo uning buyrug'iga muntazirday ko'rinsa-da, ikki qarashda tamoman bir-birida qarshi ikki xil ma'no bor edi). (Graf Monte – Kristo, 13-bet).

Teng bog'lovchi bog'langan qo'shma gapni tuzuvchi asosiy vosita bo'lib qoladi. Teng bog'lovchining har bir turi ma'lum bir mazmun munosabatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Ammo teng bog'lovchilar biror mazmun munosabati bilan qat'iy bog'lanib qolmaydi (biriktiruv bog'lovchisi biriktiruv, sabab- natija hamda izohlash munosabatlari ifodalangan qo'shma gaplarda qo'llanilishi mumkin va boshqalar).

Bog'lovchili bog'langan qo'shma gapni tashkil etgan qismlar shaklan mustaqil, mazmunan o'zaro bog'langan gaplardan tashkil topadi. Bunday qo'shma gap qismlarining bir-biriga bog'liqligi ularning tuzilishida, kesimlarning mazmunan va grammatik munosabatida, umumiy gap bo'laklarining bo'lishida ham ko'rinadi. Teng bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar ikki qismdan tarkib topadi. Bu qismlar o'zaro teng bog'lovchilar yordamida birikadi.

2.1 Fransuz tilida bo'g'lovchilarning bog'lanish xususiyatiga ko'ra turlari.

Bog'lovchilar tilshunoslikning «Morfologiya» bo'limida o'rganiladi. Morfologiya tarkibiga mustaqil so'z turkumlari, ya'ni ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe'ldan, bundan tashqari, morfologiya yordamchi so'z turkumlari va alohida olingan so'zlar guruhidan iborat. Bog'lovchilar yordamchi so'z turkumi hisoblanadi. Gapning uyushiq bo'laklari va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'laydigan yordamchi so'zlar bog'lovchilar deyiladi. Bog'lovchilar grammatik jihatdan o'zgarmaydi va mustaqil lug'aviy ma'no anglatmaydi. Fransuz tilida bog'lovchilar gaplarni va gap bo'laklarini bog'lashga hamda ular birikkan munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Ular gapda yakka va takroriy holda qo'llanishi mumkin. Yakka bog'lovchilar : **et(va)**, **aussi(ham, hamda)**, **mais(ammo, lekin, biroq)**, **car(chunki)**, **donc(demak)**, **parfois(goh)**, **comme(go'yo, xuddi)** va boshqalar. Takroriy bog'lovchilar : **tantôttantôt(dam.....dam)**, **soit**

.....**soit**(yoki.....yoki), **ou****ou**(yo.....yo), **ni****ni**(na.....na) va boshqalar.

Fransuz tilidagi ba'zi bog'lovchilar lotin tilidan o'zlashgan. Bular quyidagilar: **or, ou, ni, donc, mais, et.**

Masalan: *-Il tournera à la devotion, dit-il à demi-voix, il est déjà dispose à des sentiments plus doux. Voyez la peur fait son effet sur lui; il a reculé devant les baïnnottes, or, un fou ne recule devant rien; j'ai fait sur ce sujet des observations bien curieuses à Charenton. (Le comte de Monte Cristo, page 122). (– Bu - sabr qanoat, tavfiq bilan tamom bo'ldi, dedi u ohista. – Hozirning o'zidayoq muloyim bo'lib, faqat tinchlikni istab qolibdi, qilichlarni ko'rib chekindi, aslida jinni hech narsadan qo'rqmaydi. Men Sharontonda bu borada juda ko'p qiziq-qiziq hollarni ko'rganman.) (Graf Monte- Kristo, 139-bet).*

-Eh bien! dit Dantès, écoute et retiens bien ceci: si tu refuses de porter deux lignes à Mercédès ou tout du moins de la prévenir que je suis ici, un jour je t'attendrai cache derrière ma porte, et au moment où tu rentreras, je te briserai la tête avec cet escabeau.(Le comte de Monte Cristo, page 80). (–Mayli, sening aytganing bo'lsin, dedi Dantes. – Lekin quloq sol va esingada tutginki, sen Mercedesga xatni olib bormasang yoki jilla bo'lmasa, mening shu yerdaligimni unga xabar qilmasang, bir emas, bir kun eshik orqasida poylab turaman-da, eshikdan kirishing hamon stulcha bilan qarsillatib solamanda, kallangni majaq-majaq qilib tashlayman.) (Graf Monte- Kristo, 91-bet).

Danglars seul n'était ni tourmenté ni inquiet: Danglars meme était joyeux, car il s'était vengé d'un ennemi et avait assuré à bord du Pharaon sa place qu'il craignait de perdre.(Le comte de Monte Cristo, page 87). (Birgina Danglar bu voqealardan tashvishga tushmas va azob chekmasdi, aksincha, u quvonardi: u dushmanlardan qasos oldi va «Faraon» kemasidagi lavozimni egalladi. Ilgari, Dantes ozod vaqtida bu lavozimdan ajralib qolamanmikin, deb qo'rqib yurardi.) (Graf Monte- Kristo, 98-bet).

*Il retomba **donc** sur le plancher de la banque en poussant un hurlement de rage et en se rongéant les mains avec fureur. (Le comte de Monte Cristo, page 76). (U taxtga o'tirdi-da, alamiga chidolmay qo'lini qattiq tishladi.) (Graf Monte- Kristo, 86-bet).*

*-Je ne sais si M. de Villefort vous a fait une promesse, dit le gendarme, **mais** ce que je sais, c'est que nous allons au château d'If! (Le comte de Monte Cristo, page 75). (-Vilfor janoblari sizga nima va'da qilganidan bexabarman, - dedi jandarm, - faqat If qa'lasiga borayotganimizni bilaman, xolos.) (Graf Monte- Kristo 85-bet).*

Voici deux cailloux etdu linge brûle. (Le comte de Monte Cristo, page 160). (Mana ikkita chaqmoq tosh va ko'ylakning qiyqimidan ishlangan pilig.) (Graf Monte- Kristo, 181-bet).

2.2 Teng bog'lovchilar.

Teng bog'lovchilar bog'langan qo'shma gap qismlarining o'zaro aloqasi orqali quyidagi mazmun munosabatlari ifodalanadi:

1. Qiyoslanish munosabati. (La relation de comparaison).
 2. Biriktiruv munosabati. (La relation de copulatif).
 3. Ayiruv munosabati. (La relation de disjonctif).
 4. Sabab va natija munosabati. (La relation de causal et consequence).
 5. Izohlash munosabati. (La relation d'explicatif).
1. Qiyoslash munosabatini ifodalovchi bog'lovchilar. (Les conjonction de comparaison).

Qiyoslash munosabatini ifodalovchi bog'lovchilar bog'langan qo'shma gap qismlarining mazmunini bir-biriga qiyoslaydi. Ma'lum voqea hodisa, belgi-xususiyatlarni bir- biriga qiyoslashdan maqsad ular orasidagi farqni aniqlash yoki ularni zid qo'yish, bir-biriga nomuvofiq ekanini ko'rsatishdir. Qiyoslash munosabatini ifodalovchi qo'shma gap ikki markazga, ikki qismga bo'linadi. Har ikki qism bir-biriga qiyoslanadi. Qiyoslovchi bog'lovchili qo'shma gaplarda har ikki qismning yoki bu qismlardan birining mazmuni qiyoslanadi, izohlanadi.

Masalan: *Non, mon cher Caderousse, répondit Dantés, je ne suis pas fier, mais je suis heureux, et bonheur aveugle, je crois, encore plus que la fierté. (Le compte de Monte – Kristo, page 32). (Azizim, Kadruss, aslo unday emas, - javob qildi Dantes. –Men zarracha kibrlanganim yo'q. Faqat baxtiyorman, baxtiyor! Kibrga qaraganda, baxt kishini ko'proq mast-alast qilsa kerak) (Graf Monte – Kristo, 32- bet).*

Qiyoslash munosabatini ifodalagan bog'lovchili qo'shma gaplar quyidagi mazmun munosabatni ro'yobga chiqarishi mumkin:

1.Zidlash munosabatini ifodalovchi bog'lovchilar. (Les conjonctions adversatif).

Bu bog'lovchilar qo'shma gap qismlarining umumiy mazmuni yoki gaplar tarkibidagi ayrim bo'laklar biror tomondan bir-birida zid qo'yiladi. Bu xil qo'shma gap qismlarini asosan, ammo, lekin, biroq (mais) bog'lovchilari biriktiradi.

- a) Bu bog'lovchilar qo'shma gapning qismida shaxs yoki voqea-hodisaning xohishini ifodalab, ikkinchi qismda shu xohishga zid bo'lgan voqea-hodisa ro'y beradi.

Masalan: *-Oh! Oui, reprit Caderousse, et de beaux partis, meme; mais, tu comprends, tu vas être capitaine, on n'aura garde de te refuser, toi! (Le compte de Monte – Kristo, page 17). (- Chindan, ha, chindan, - davom ettirdi so'zini Kadruss. – Buning ustiga yugurib yurganlar qizlarning havasi keladigan xusnda hech kimdan qolishmaydigan yigitlar. Biroq sen tezda kapitan bo'lib olasan, shuning uchun seni rad etmaslar, albatta. Bunga o'zingning ham fahming yetib turgandir). (Graf Monte – Kristo, 19- bet).*

- b) Predmetning harakat-holati, belgi – xususiyati shaxsning harakat-holatiga zid qo'yiladi.

Masalan: *- J'ai pu percer un mur et détruite un escalier, mais je ne percerai pas une poitrine et ne détruirai pas une existence. (Le compte de Monte – Kristo, page 155). (- Devorni teshib tashlashim va zinapoyani*

sindirishim mumkn, biroq ko'krakni teshib, kimningdir hayotini poymol qilish qo'limdan kelmaydi). (Graf Monte – Kristo, 175-bet).

c) Bog'lovchili qo'shma gapning birinchi qismidan anglashigan harakat, belgi-xususiyatning zid bo'lishiga qaramay, ikkinchi qismdan anglashilgan mazmun yuzaga chiqadi.

Masalan: - *J'avais d'abord songé à descaller ces barreaux et à fuir par cette fenêtre, qui est un peu plus j'eusse élargie encore au moment de mon évasion; mais je me suis aperçu que cette fenêtre donnait sur cour intérieure, et j'ai renoncé à mon projet comme trop chanceux.* (*Le compte de Monte – Kristo, page 161*). (- O'zingiz ko'rib turibsizki, bu deraza siznikidan sal keng, qochish oldida men uni yana kengaytirardim, biroq u ichki hovliga qaragan ekan, bu niyatimdan qaytdim). (Graf Monte – Kristo, 182-bet).

2.Qiyoslash munosabatini ifodalovchi bog'lovchilar. (Les conjonctions de comparaison).

Ushbu bog'lovchilar qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplardan anglashilgan mazmunni bir-biriga qiyoslash mumkin. Qiyoslovchi bog'lovchi qo'shma gap tarkibidagi bo'laklarni ma'nosini bir-biriga qiyoslaganda:

a) Qiyoslanayotgan bo'laklarning xususiyatlaridagi farqlar ochiladi.

Masalan: *Danglars suivit Edmond et Mercédès des yeux jusqu'a ce que les deux amants enssent disparu à l'un des angles du fort Saint- Nicolas; puis, se retournant alors, il aperçu Fernand, que était retombé pâle et frémissant sur sa chaise, tandis que Caderousse balbutait les paroles d'un chanson à boire.* (*Le compte de Monte – Kristo, page 30*). (Edmon va Mercedes to muqaddas Nikolay qo'rg'onidan o'tguncha Danglar ulardan ko'zini uzmadi. So'ng ichkilikboz do'stlari yoniga qaytib keldi, rangi bo'zarib titroq bosgan Fernan qimir etmay o'tiribdi, Kadruss esa qandaydir ashulani ping'illab aytyapti. (Graf Monte – Kristo, 33- bet).

b) Qismlardan anglashilgan mazmunning bir-biriga muvofiq kelmasligi ko'rsatiladi yoki to'siqsizlik mazmuni anglashiladi.

Masalan: - *Et vous êtes là à vous arracher les cheveux au lieu de chercher remède à la chose! Que diable, je ne croyais pas ce fût ainsi qu'agissaient les gens de votre nation. (Le compte de Monte – Kristo, page 30). (- Shunday ekan, bu dard-alamga davo topish o'rniga bu yerda suvga tushgan bo'lkaga o'xshab o'tiribsiz! Obbo shovvoz-ey! Katalinaliklar bunaqa deb o'ylamagandim).* (Graf Monte – Kristo, 34-bet).

Izohlash munosabatini ifodalovchi bog'lovchilar. (Les conjonctions d'explicatives). Ushbu bog'lovchilar bog'langan qo'shma gapning ayrim turlarida qiyoslash, ham ifodalaydi. Bunday qismlarning tarkibidagi ayrim bo'laklarning ma'nosi yoki birinchi qismning umumiy mazmuni izohlanishi mumkin. Izohlash orqali qiyoslash, zidlash munosabatlari kelib chiqadi yoki ikkinchi qismga birinchi qismga bog'liq bo'lgan qo'shimcha ma'lumot beriladi. Masalan: - *Monsieur, répondit Villefort arrivant à la prade avec sa prestesse et son sang- froid ordinaires, j'étais royaliste alors que je croyais les Bourbons non seulement les héritiers légitimes du trône, mais encore les élus de la nation; mais le retour miraculeux don't nous venons d'être temoins m'a prouvé que je trompais. Le Génie de Napalèon a vaincu: le monarque légitime est le monarque aimé. (Le comte de Monte Cristo, page 114).* (Hurmatli janob, - deb e'tiroz bildirdi Vilfor zarbani o'ziga xos sovuqqonlik bilan bartaraf qilib. – Men Burbonlar taxtining qonuniy vorisigina emas, shuning bilan birga, xalqning o'zi saylagan vakili deb o'ylab yurganimda royalistlar safiga kirgan edim. Ammo imperatorning saroyga g'olibona qaytib kelishi mening adashganimni tasdiqlab berdi. Napoleonnning geniysi g'olib chiqdi: sevimli monarxiya – qonuniy monarx bo'la oladi). (Graf Monte Kristo, 129-bet)

Biriktiruv munosabatini ifodalovchi bog'lovchilar. (Les conjonctions copulatives). Ushbu bog'lovchilar qo'shma gap qismlaridagi ma'lum bir paytda yoki ketma-ket ro'y bergan voqea- hodisa, harakatlarni biriktirib keladi. Biriktiruv bog'lovchilari qo'shma gapning ikkinchi qismi birinchi qismining umumiy mazmunini yoki ko'pincha, birinchi qismning

tarkibidagi ayrim bo'laklarning ma'nosini izohlaydi va u bog'liq bo'lgan qo'shimcha ma'lumotni ifodalaydi. Biriktiruv munosabatini ifodalovchi bog'lovchilar qo'shma gapning har ikki qismida umumiy mazmun yoki ayrim gap bo'laklarini ma'nosini bir- biriga qiyoslaydi, zid qo'yadi. Biriktiruv munosabati ifodalangan qo'shma gaplarda qanday qo'shimcha mazmun turlari ifodalanmasin, qo'shma gap qismlaridan anglashilgan harakat- holat, xususiyat ma'lum bir paytda ro'y beradi, ma'lum payt bilan bog'lanadi. Shunga ko'ra, biriktiruv munosabatida bo'lgan bog'langan qo'shma gaplar ikki guruhga bo'linadi:

1. Harakat- holat yoki biror belgining bir paytda ro'y berishini ko'rsatuvchi bog'langan qo'shma gaplar.
2. Harakat- holat yoki biror belgining ketma- ket ro'y berishini ko'rsatuvchi bog'langan qo'shma gaplar.

Ayiruv munosabatini ifodalovchi bog'lovchilar. (Les conjonctions disjonctives). Ayiruv munosabatini ifodalovchi bog'lovchilar bog'langan qo'shma gapning ayrim turlarida qismlaridan anglashilgan mazmun- voqea, hodisa, holatlarning biri ro'y berib, ikkinchisi ro'y bermaydi yoki ularning har qaysisi ro'y beradi, ammo ro'y berishi ketma- ket bo'ladi. Bu xil qo'shma gap qismlaridan anglashilgan mazmun, odatda, bir- biriga bog'liq bo'lmaydi, biri ikkinchisini izohlamaydi. Ammo shunga qaramay, qo'shma gap qismlari mazmunan bir- biriga yaqin bo'lgan yoki bir turdagi tushunchalarni ifodalaydi.

Ayiruv munosabatini ifodalagan bog'lovchili qo'shma gap qismlari o'zaro ayiruv bog'lovchisi yordamida bog'lanadi. Ayiruv munosabatini ifodalagan bog'lovchilarni qo'shma gap qismlarida o'zaro mazmun munosabati uch xil bo'ladi:

- 1 Qo'shma gap qismlaridan anglashilgan harakat- holatning biri ro'y beradi yoki ro'y bermaydi.
- 2 Qo'shma gap qismlaridan anglashilgan harakat- holatlar galma- gal sodir bo'ladi.

3 Qo'shma gap qismlaridan anglashilgan harakat- holatning har ikkisi ro'y beradi yoki ro'y bermaydi.

Sabab - natija munosabatini ifodalovchi bog'lovchilar. (Les conjonctions de cause et consequence). Ushbu bog'lovchilar bog'langan qo'shma gap qismlarinig biri ma'lum voqea, hodisa, holatning ro'y berishiga sabab bo'lgan voqea- hodisa, holatni, ikkinchi qism esa shu sabab asosida ro'y bergan voqea- hodisa, holatni ifodalaydi. Sabab va natijani ifodalovchi bog'lovchilar ergash va bosh gaplarda har ikki gapni bir- biri bilan mazmunan aloqaga kiritadi, ergash gap bosh gapsiz ishlatilmaydi. Ergash gapli qo'shma gapdagi tobelik va hokimlik bog'langan qo'shma gapda bo'lmaydi. Bog'langan qo'shma gapning bu turini tashkil etgan qismlar tuzilishi jihatidan mustaqil sodda gap shakliga bo'ladi.

Izohlash munosabatini ifodalovchi bog'lovchilar. (Les conjonctions d'explicatives). Izohlash munosabatini ifodalovchi bog'lovchilar ba'zi bog'langan qo'shma gap qismlarining so'nggisi oldingi aytilgan qismlarning mazmuniga qo'shimcha izoh beradi, uni to'ldiradi, davom ettiradi. Ular oldingi qismlarning mazmuniga aloqador bo'lgan yoki shu mazmundan kelib chiqadigan biror qo'shimcha xabarni yoki natijani ifodalaydi. Bu xil gaplar sodda yoki qo'shma gaplarning birikuvidan tashkil topishi mumkin. Ikkinchi qism birinchisiga izoh bo'lgan qo'shma gap qismlarini o'zaro bo'g'lash uchun biriktiruv bog'lovchilari hamda zidlov bog'lovchilari xizmat qiladi.

Fransuz tilida xuddi o'zbek tilidagidek bog'lovchilar ikkiga bo'linadi: teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilar. Teng bog'lovchilar gap va gap bo'laklarini o'zaro teng munosabatda bog'laydi. Ergashtiruvchi bog'lovchilar qo'shma gaplarni hamda bosh va ergash gaplarni bog'lashga xizmat qiladi.

Teng bog'lovchilar gap bo'laklari va ayrim sodda gaplar orasidagi teng munosabatni ifodalaydi. Ular gapda mazmuniy munosabatlarni qay tarzda ifodalashiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1.Biriktiruv bog'lovchlar:**va (et), ham, hamda (aussi).**

Misol: *J'achète le livre **et** le cahier.*

2.Zidlov bog'lovchilari: **ammo, lekin, biroq (mais).**

Elle aime chanter, **mais** elle ne veut pas danser.

Fransuz tilidagi boshqa bog'lovchilar har xil so'zlarni o'zagartirib qo'llanishi orqali kelib chiqqan. Bular:*ainsi, alors, enfin, cependant, d'ailleurs, c'est-à-dire, par exemple, c'est pourquoi, toutefois, néanmoins, soitsoit, par conséquent, en conséquence* va boshqalar.

Teng bog'lovchilar ikki gap yoki ikki so'zni bog'laydi, shu bilan birga ular qo'shimcha fikr ham ifodalashi mumkin.

Masalan **et** bog'lovchisi : *Sylvie lui prit le bras **et** elles continuèrent leur chemin (Rolland).* (Silviya uning qo'lidan tutdi va ular yo'llarini davom ettirishdi.)

Et bog'lovchisi boshqa bir ma'no ifodalashi ham mumkin:

Masalan: *Sa voix cherchait à être douce **et** ne parvenait qu'à être basse.*

Bu misolda**et** bog'lovchisi zid ma'noda kelyapdi.

Fransuz tilidagi **ou, ou bien, soit.....soit, tantôt.....tantôt** bog'lovchilari o'zbek tilidagi *yo, yoki, dam, goh, ba'zan* kabi ayiruv bog'lovchilariga mos keladi. Bu bog'lovchilar ish- harakatni navbatma-navbat sodir bo'lishini ifodalaydi.

Masalan: *Je partirai aujourd'hui **ou** demain. (Le comte de Monte - Cristo, page 48).* (Men bugun yoki ertaga jo'nab ketaman).(Graf Monte Kristo 52-bet). *Tu me trouveras **soit** dans la lesson, **soit** dans la bibliothèque.(Rolland).* (Sen meni yo darsdan yo kutubxonadan topishing mumkin).

Fransuz tilidagi **ni** bog'lovchisi o'zbek tilidagi **na** inkor bog'lovchisiga to'g'ri keladi. **Ni** bog'lovchisi gapda inkorni ifodalaydi va faqat ot, sifat, ravish so'z turkumlari hamda fe'lning infinitiv shakli oldidan qo'llanadi.

Masalan:-Eh! Qui diable y songe, à lui faire du mal! ce n'est **ni** moi, **ni** Fernard! dit Danglars en levant en se regardant le jeune homme qui était demeuré assis, mais dont l'œil oblique couvrait le papier dénonciateur jeté dans un coin.(Le comte de Monte Cristo, page 35). (- Unga zarar yetkazaman deyaptimi? Na meni va na Fernandning unga hech qanday xusumatimiz yo'q! - dedi Danglar o'rnidan turayotib, u burchakka irg'itilgan qog'ozga ko'z qirini tashlab o'tirgan Fernandga qarab-qarab qo'yardi.) (Graf Monte Kristo, 39-bet).

Bundan tashqari fransuz tilida zidlikni ifodalovchi bog'lovchilar bor, masalan: **cependant** (shunday bo'lsa ham, biroq). Il me semble que vous lui volez sa place pour donner au Corse; c'est **cependant** bien assez d'une usurpation, ce me semble. (Le comte de Monte – Cristo, page 51). (Nazarimda, siz o'rnini o'g'irlab olib korsikanlikka hadya qilayotganga o'xshaysiz; shunday bo'lsa ham bitta uzurpatsiyaning o'ziyoq yetib ortar bizga). (Graf Monte – Kristo, 57-bet)

Pourtant (biroq, ammo,lekin, -sa ham, -ga qaramasdan).

Néanmoins (shunga qaramay, shunday bo'lsa ham, har holda).

Mais (ammo, lekin, biroq). -Il est arrivé à bon port, monsieur Morrel, et je crois que vous serez content sous ce rapport; **mais** ce pauvre capitaine Leclère..... (Le comte de Monte - Cristo, page 4). (-Yuklar bus-butun keldi, siz bundan albatta mamnun bo'lursiz deb o'ylayman. Biroq bechora kapitan Lekler.....).(Graf Monte - Kristo, 5-bet).

Au contraire (aksincha), **par contraire** (shu tufayli, shu sababli)

-Eh bien, mon cher duc, répondit Louis XVIII, je vous crois mal, renseigné, et je sais positivement **au contraire** qu'il fait très beau temps de ce côté-là. (Le compte de Monte - Cristo, page 88).(Shunday deb o'ylasangiz, azizim gertsog, - javob qildi Lyudovik XVIII, - demak, ko'p narsadan bexabar ekansiz. Mening bilishimcha, aksincha, u yerda havo ochiq). (Graf Monte – Kristo, 99-bet).

En revanche (lekin, shunga qaramasdan)

Il y fait froid, mais en revanche c'est très vivifiant. (Le compte de Monte - Cristo, page 145). (U yerda sovuq, shunga qaramasdan bu juda te tiklashtiruvchi). (Graf Monte – Kristo, 151-bet).

C'est un home agreeable, en revanche sa femme est assez renfermée. (Le compte de Monte - Cristo, page 80). (Bu juda yoqimtoy odam, uning xotini aksincha, juda pismiq). (Graf Monte - Kristo, 86-bet).

Fransuz tilida sababni ifodalovchi **car** (chunki, negaki) bog'lovchisi bor. Bu bog'lovchi ish-harakatni sodir bo'lish sababini ifodalaydi. Masalan: *On est toujours pressé d'être heureux, monsieur Danglars, car lorsqu'on a souffert longtemps on a grand-peine à croire au Bonheur. (Le compte de Monte - Cristo, page 29). (–Baxt ketidan quvganda, kishi hamisha mana shunaqa shoshiladi, janob Danglar, chunki ko'p iztirob chekkan kishi o'z baxtiga ham zo'rg'a ishonadi). (Graf Monte - Kristo 33-bet).*

Fransuz tilidagi voqea-hodisalarni natijasini ifodalaydigan bog'lovchilar quyidagilar: **donc** (demak, binobarin, shunday ekan). *–Eh! Te viola donc revenue, Edmond? Dit-il avec un accent marseillais des plus prononces et avec un large sourire qui découvrait ses dents blanches comme de l'ivoire. (Le compte de Monte - Cristo, page 15). (O'ho'! Edmon, va nihoyat, kelibsizlar-da, -dedi u marselliklar talaffuzida, iljayib, oppoq tishlarini ko'z-ko'z qilib). (Graf Monte – Kristo, 17-bet). Par consequent (shunday qilib), en consequence (sababli, oqibatda).*

Quatre jours pour aller, quatre jours pour revenir, un jour faire enconscience la commission dont je suis chargé, et le 1er mars je suis retour; au 2 mars donc le veritable repas de nocces. (Le compte de Monte - Cristo, page 41). (To'rt kun borish, to'rt kun qaytish, bir kun topshiriqni bajarishga ketadi, shuning uchun to'qqizinchi mart kuni shu yerda bo'laman, o'ninchida esa haqiqiy to'y ziyofati bo'ladi). (Graf Monte – Kristo, 45-bet).

C'est pourquoi (shuning uchun).

Ainsi (shunday qilib, shunday, demak, binobarin).

Ainsi, ce que nous prenions pour un repas de fiançailles, dit Danglars, et tout bonnement un repas de noces. (Le compte de Monte - Cristo, page 41). (- Demak, biz nikohda emas, -dedi Danglar, - to'yda o'tiribmiz ekan-da). (Graf Monte - Kristo 45-bet).

Aussi (ham, shuningdek).

Je ne sais rien, je ne suis destinée à jouer aucun rôle; le peu que je suis et que je serai, si l'on m'accorde la place que j'ambitionne, c'est à M. Morrel que je le devrai. Aussi, toutes mes opinions, je ne dirai pas politique, mais privées, se bornent-elles à ces trois sentiments: j'aime mon père, je respecte M Morrel et j'adore Mercedes. (Le compte de Monte - Cristo, page 63). (Men hech nima bilmayman, biror muhim mavqega ega bo'lolmayman ham: umidvor bo'lganim o'rinni bersalar ana o'shanda hozirgi va kelajak mavqeim uchun faqat janob Morreldan minnatdor bo'lardim. Shuning uchun mening siyosatga mutloq aloqasi bo'lmagan maslaklarim uch tuyg'udan iborat: o'z otamni sevaman, janob Morrelni hurmat qilaman va go'zalim Mercedesning maftuniman). (Graf Monte – Kristo, 72-bet).

Par suite (sababli, tufayli, natijasida, oqibatda).

Fransuz tilidagi **donc, enfin, or, ainsi** bog'lovchilari ish-harakatni yakunlanishini, nihoyasini ifodalaydi. Quyidagi misollarda ushbu bog'lovchilar qo'llanilgan gaplarni ko'ramiz:

*-Oh! Mais je lui devrai **donc** tout à ce digne prince. Aussi que ne ferais -je pas pour le servir! (Le compte de Monte - Cristo, page 56). (- Demak, bularning hammasi menga qirolning oily himmati ekan-da? - dedi markiza). (Graf Monte – Kristo, 64-bet).*

*Le vieillard et Mercedes restèrent quelque temps isolés, chacun dans sa propre douleur; mais **enfin** leurs yeux se rencontrèrent; (Le compte de Monte - Cristo, page 45). (Edmonning otasi bilan Mercedes har ikkisi o'z qayg'u - alamini alohida-alohida tortgancha anchagacha tik turib qolishdi. Nihoyat ularning ko'zlari to'qnashishdi). (Graf Monte – Kristo, 49-bet).*

Or comme une heure et un quart viennent de sonner, je ne crois pas me tromper de beaucoup en disant que dans une heure trente minutes Mercédès s'appellera madame Dantès. (Le compte de Monte - Cristo, page 40). (Mana hozir birdan chorak o'tdi, demak, bir soat-u o'ttiz daqiqadan so'ng Mercedes Dantes xonim bo'lib qoladi, desam xato qilmagan bo'laman). (Graf Monte –Kristo, 45-bet).

-Ainsi, le coupable est arrêté, dit la marquise. (Le compte de Monte - Cristo, page 57). (-Aybdorni allaqachon qamoqqa olibdilar deng? - dedi markiza). (Graf Monte – Kristo, 65-bet).

2.3 Ergashtiruvchi bog'lovchilar.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar. Bu bog'lovchilar ergashgan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga ergashtirish yo'li bilan bog'laydi va ular o'zbek tilida quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Aniqlov bog'lovchilari : **que**(-ki (kim), ya'ni).
2. Sabab bog'lovchilari: **car**(chunki, shuning uchun, negaki).
3. Shart bog'lovchilari: **si** (agar, agarda, basharti, garchi).
4. Chog'ishtiruv bog'lovchilari: **comme**(go'yo, go'yoki).

Fransuz tilidagi ergashgan qo'shma gaplar tarkibidagi ikki gap biri ikkinchisiga tobe bo'lib, ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki bog'lovchi vositalar yordamida birikadi. Ular ikki xarakterdagi sodda gaplardan tashkil topadi. Ya'ni boshqa bir gapga ergashib, uni izohlab yoki to'ldirib keluvchi gaplar ergash gaplar (la proposition subordonnée), mazmuni izohlanayotgan gaplar bosh gaplar (la proposition principale) hisoblanadi. Bu ikki gap birgalikda umumiy bir fikrni ifodalaydi.

Fransuz tilida to'rtta sodda ergashtiruvchi bog'lovchilardan asosiylari quyidagilar: **que, si, quand, comme**. Ular lotin tilidan kelib chiqqan. Boshqa murakkab ergashtiruvchi bog'lovchilar fransuz tilidan shakllangan.

Ba'zi ergashtiruvchi bog'lovchilari gaplarni bog'lash jarayonida bir necha ma'noga ega bo'ladi. Masalan: **Quand** *je l'aurais voulu, je n'aurais pu le faire. (Le compte de Monte - Cristo, page 64). (Men uni o'zim istagan*

paytimda bajara olmayman). (*Graf Monte – Kristo, 68-bet*). Bu gapda **quand**bo'lovchisi payt ma'nosini emas, zidlik ma'no ifodalangan.

Ma'lumki, gapdagi so'zlar ma'lum grammatik qonun- qoida asosida bir- biri bilan birikib so'z qo'shilmasini hosil qiladi. Bunday qo'shilish natijasida so'z birikmasi va gap hosil bo'ladi.

Qo'shma gaplar. Ikki yoki undan ortiq sodda gapning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan va ohang tugallikka ega bo'lgan butunlik qo'shma gap hisoblanadi. Qo'shma gap tarkibidagi qismlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

1. Ular mazmun jihatdan bir-biriga bog'lanishi kerak. Masalan quyidagi gaplarni yonma-yon qo'yib qo'shma gap hosil qilib bo'lmaydi: «*Qor yog'di, gullar ochildi*»; yoki «*Kunlar soviy boshladi, ko'klam keldi*»; Bu gaplarda mazmuniga ko'ra bog'lanish yo'q. Agar ularni «*Qor yog'di, kunlar soviy boshladi*» va «*Ko'klam keldi va gullar ochildi*» desak har ikki juftlikka ham mazmuniga ko'ra bog'lanish bo'lgani uchun ular ikkita qo'shma gapni tashkil qiladi.

2. Qo'shma gaplarni har bir qismidan keyin gaplarga xos bo'lgan nisbiy tugal ohang (intonatsiya) qo'llanadi. Intonatsiya gaplar orasida nisbiy tugal bo'lsa ham qo'shma gap oxirida tugal xarakterga ega bo'ladi. Demak, qo'shma gaplar ikki yoki undan ortiq qismlarning mazmun jihatdan, grammatik xususiyati va intonatsiyasiga ko'ra birikuvidan tashkil topadi.

Qo'shma gaplar ham o'z navbatida bog'langan qo'shma gaplar (la proposition coordonnée) va bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplar (la proposition juxtaposée) ga bo'linadi. Bog'langan qo'shma gaplar tarkibida albatta ikkita mustaqil gap mavjud bo'lishi shart va bu ikki gap sintaktik jihatdan bir xil maqomga ega bo'ladi. Ular o'zaro teng bog'lovchilar (les conjonction) yoki ravishlar yordamida birikadi. Bunday gaplar bir necha xil ma'nolarni ifodalab kelishi mumkin. Bular quyidagilar:

1.Biriktiruv ma'nosini (le sens copulatif) ifodalaydi va **et, ni** (inkor garlarda), **aussi, enfin, ensiute, puis, de plus, bien plus, meme, or** kabi bog'lovchilar va ravishlarning birortasi bilan birga keladi. Maslan: *Il mange la soupe, puis il a dit "Merci"*.

2.Ayiruv ma'nosini (le sens disjonctif) ifodalaydi va **ou,ou bien, tantôt, plutôt** kabi bog'lovchilarningbirortasi bilan birga keladi. Maslan: *Ce matin je vais au stade ou je visite mon ami.*

3.Zidlov ma'nosini (le sens adversatif) ifodalaydi va **mais, au contraire, par contre, toutefois, du moins, néanmoins, sinon, pourtant, cependant**kabi bog'lovchilarning birortasi bilan birga keladi. Masalan: *Il apprend le français depuis longtemps mais il ne peut pas parler bien français.*

4.Sabab- natija ma'nosini (le sens causel et consequence) ifodalaydi va **car, en effet, tant, donc** kabi bog'lovchilarning birortasi bilan birga keladi. Masalan: *Il n'est pas allé à l'école, car il était malade.*

5.Izohlash ma'nosini (le sens explicatif) ifodalaydi va **au fait, au reste, du reste, d'ailleurs, un peu plus, c'est-à-dire, de toute façon** kabi bog'lovchilari va ravishlarning birortasi bilan birga keladi. Masalan: *Quand je les dépassai, nous nous regardames: un peu plus, nous nous adressions la parole.*

Ergashtiruvchi bog'lovchilar quyidagilar: payt ergash gapli qo'shma gaplar (conjonction de temps) quidagi bog'lovchilar yordamida bog'lanadi: **quand, comme, lorsque, alors que, sitôt que, depuis que, jusqu'à ce que, en attendant que, tant que, aussi longtemps que, tandis que, en meme temps que, à mesure que, au fur et à mesure que** va boshqalar.

Maqsad ergash gapni ifodalovchi bog'lovchilar (conjonction de but): **afin que, pour que, de manière que, de façon que, de crainte que, de peur que**va boshqalar.

Natija ergash gaplarni bog'lashga xizmat qiladigan bog'lovchilar (conjonction de consequence): ***de façon que, de manière que, de sorte que, si bien que, au point que, à ce point que, pour que, tellement que*** va boshqalar.

To'siqsiz ergash gaplarni bog'lashga xizmat qiladigan bog'lovchilar (conjonction de condition): ***si, à condition que, pour vu que, à supposer que, suppose que, à moins que, en cas que, au cas où, pour peu que*** va boshqalar.

Qiyosiy ergash gaplarni bog'lashga xizmat qiladigan bog'lovchilar (conjonction de comparaison): ***comme, comme si, de meme que, ainsi que, autant que, tant que, plus que, moins que, aussi... que, si... que, tellement que*** va boshqalar.

Hol ergash gaplarni ifodalovchi bog'lovchilar (conjonction de manière): ***de sorte que, de manière que, de façon que, sans que, comme*** va boshqalar.

Fransuz tilida bog'lovchilar bog'lanish xususiyatiga ko'ra payt bog'lovchilari (*Conjonction de temps*), sabab bog'lovchilari (*Conjonction de cause*), maqsad bog'lovchilari (*Conjonction de but*), to'siqsizlik bog'lovchilari (*Conjonction de concession*), qiyoslash bog'lovchilari (*Conjonctoin de comparaison*), natija bog'lovchilari (*Conjonction de consequence*), Shart bog'lovchilari (*Conjonction de condition*), Tarz holi bog'lovchilari (*Conjonction de manière*)ga bo'linadi.

Payt ergash gap bog'lovchilari (Conjonctions de temps). Payt ergash gap bog'lovchilari quyidagilar: ***quand, comme, lorsque, alors que, avant que, après que, dès que, aussitôtque, sitôt que, depuis que, jusqu'à ce que, en attendant que, tant que, aussi longtemps que, tandis que, en meme temps que, à mesure que, au fur et à que*** va boshqalar.

Au moment où bog'lovchisi aniq ish-harakatni ketma-ketligini ifogalaydi. Masalan: *En effet, au moment où Edmond achevait la phrase à voix basse, on vit apparaitre, encardée par la porte du palier, la tête noire et*

barbye de Caderousse. (*Le comte de Monte - Cristo*, page 15). (Edmond soʻzini tugatmasdanoq eshikdan Kadrussning qop-qora soqolli basharasi koʻrindi. (*Graf Monte – Kristo*, 17-bet).

Chaque fois que bogʻlovchisi fikrni takrorlaishini ifodalaydi.

Masalan: *Deux fois, pendant cette courte apparition impériale que l'on appella les Cent-Jours, Morrel était revenue à la charge, insistant toujours pour la liberté de Dantes, et chaque fois Villefort l'avait calmé par des promesses et des espérances; (Le comte de Monte - Cristo, page 117). (Napoleonning qaytganidan buyon Yuz kun deb ataladigan qisqa muddat mobaynida Morrel yana ikki marta kelib, Dantesni boʻshattirib ber, deb gʻalva koʻtardi, lekin har safar ham Vilfor vaʼdalar va umid orzular bilan uni ortiga qaytarib yubordi). (Graf Monte – Kristo, 113-bet).*

Payt ergashgashgan qoʻshma gaplardagi voqea- hodisalarni sodir boʻlishidan oldingi voqealarni ifodalovchi bogʻlovchilar quyidagilar:

Aussitôt que, dès que, sitôt que bogʻlovchilari ish-harakatni toʻgʻridan-toʻgʻri, oldin boʻlib oʻtganligini koʻrsatadi.

Masalan: **Aussitôt** *l'ancre tomba, et la chaine fila avec bruit. Dantès resta à son poste, malgré la presence du pilote, jusqu'à ce que cette dernière manoeuvre fût terminée; (Le comte de Monte - Cristo, page 7). (Shu zahoti langar tashlashdi, zanjir esa jaranglaganicha choʻzilib ketdi. Lotsman shu yerda hozir boʻlishiga qaramay, Dantes ana shu oxirga buyrugʻi toʻla bajarilmaguncha oʻrnidan qimirlamadi). (Graf Monte – Kristo, 8-bet).*

Depuis que bogʻlovchisi boʻlib oʻtgan ish- harakatni boshlanishi va natijasini shu bilan birga ikkinchi harakatni tugallanmaganini va hali davom etayotganini ifodalaydi.

Masalan: **Depuis qu'***elle est arrive à Moscou, elle ne fait que courir les theatres.*

Pendant que bogʻlovchisi ikkita ketma-ket kelgan ish- harakatni bogʻlaydi, lekin ayni vaqtda davom etayotgani muhim emas. Masalan: *Il est entre chez le maréchal pendant que j'y étais. (Le comte de Monte –*

Cristo, page 7). (*Men marshalning uyidaligimda u ham kirib qoldi*). (*Graf Monte – Kristo, 8-bet*).

Tant que, aussi longtemps que bog'lovchilari ikkita ketma-ket kelgan ish-harakatni ifodalaydi va ular ayni bir vaqt bo'lagida davom etadi. Masalan: **Tandis que** son regard scrutateur semblait vouloir pénétrer jusqu'au fond du coeur de cet homme assez hardi d'intercéder pour un autre, quand il devait savoir que lui-même avait besoin d'indulgence. (*Le comte de Monte - Cristo, page 60*). (*Prokror yordamchisi o'zi ham shafqatga muhtoj bo'lib turganda, boshqani himoyasiga olayotgan bu kishining ichidagini bilishga urinib sinovchan nazar tashlab turdi anchagacha*). (*Graf Monte – Kristo, 68-bet*).

Comme bog'lovchisi har doim bir ish-harakat davom etib turgan joyda boshqa bir harakat paytni o'ziga qo'shilib ketishini ifodalaydi.

Masalan: **Comme** le frère et la soeur allaient se lever de table, on frappa. (*Le comte de Monte Cristo, page 139*). (*Aka va singil stuldan turayotgan paytda eshik taqilladi*). (*Graf Monte – Kristo, 147-bet*).

A mesure que va au fur et à mesure que bog'lovchilari fikrni davom etishi va jadallashish vaqtini ifodalaydi.

Masalan: **A mesure que** Dantès parlait, Villefort regardait son visage à la fois si doux et si ouvert, et se sentait revenir à la mémoire les paroles de Renée, qui sans le connaître, lui avait demandé son indulgence pour le prévenu. (*Le comte de Monte - Cristo, page 63*). (*Dantes gapirayotganida Vilfor uning pok va ochiq chehrasiga tikilib turdi-da, sevgilisining so'zini esladi: Rene ayblanuvchining kimligini bilmasa-da, unga rahm-shafqat qilishini so'ragan edi*). (*Graf Monte – Kristo, 72-bet*).

Tandis que, alors que ko'pincha bildirilayotgan fikrni payti va qarama-qarshiligini ifodalaydi, lekin qarama-qarshi fikrlar matnda ajralib turganda, bu bog'lovchilar ketma-ketlikni ifodalaydi.

Masalan: -*Bon encore des lèvres qui dissent une chose tandis que le Coeur en pense une autre, murmura Edmond: mais, n'importe c'est un*

voisin qui nous a rendu service autrefois qu'il soit le bienvenu. (*Le comte de Monte - Cristo*, page 14). (-Bu odam tili boshqa-yu dili boshqa nusxalardan, - dedi shivirlab Edmon. –Ha mayli, har qalay qo'shnimiz-ku, bizga uncha-muncha yordam ham berdi. Uni ota, navozish-la, kutib oling). (*Graf Monte – Kristo*, 16-bet).

Après que bog'lovchisi oldin bo'lib o'tgan ish- harakatni ko'rsatadi. Masalan: **Après que** tout fut décidé, on sépara. (*Le comte de Monte Cristo*, page 141). (Hamma qaror qilguncha, ular ajrashishdi). (*Graf Monte – Kristo*, 162-bet).

Payt ergash gapli qo'shma gapli qo'shma gaplardagi ish- harakatlar sodir bo'lishidan keyingi voqealarni ifodalovchi bog'lovchilar quyidagilar:

Avant que (avval, oldin, ilgari, -gacha, -ga qadar) bog'lovchisi asosiy ish- harakat sodir bo'lishidan oldin bo'lib o'tgan ish- harakatni ifodalaydi.

Masalan: -Ce n'est pas encore mon nom, dit-elle, et dans mon pays cela port Malheur, assure-t-on, d'appeller les filles du nom de leur fiancé **avant que** ce fiancé soit leur mari; appelez-moi donc Mercédès, je vous prie. (*Le comte de Monte - Cristo* page 28). (- Meni hali bunday deb ataganlaricha yo'q, - dedi u. – Kuyov qizning eri bo'lmaguncha uni kim qalliqning familyasi bilan atab chaqirsa, unga musibat tilagan bo'ladi, deyishadi bizda. Shuning uchun, sizdan iltimos qilaman, meni Mercedes deb chaqiravering). (*Graf Monte – Kristo*, 32-bet).

-Et **avant que** Mercédès mesure, reprit Fernand avec l'accent d'une immutable resolution, je mourrais moi-même. (*Le comte de Monte Cristo* page 30). (-Avval Mercedes emas, - dedi qat'iyat bilan Fernan, - men o'laman!). (*Graf Monte Kristo* 34-bet).

Jusqu'à ce que (qadar, -guncha, -gacha) asosiy ish- harakat tugallanayotganda boshqa ish- harakat boshlanganini va hali tugallanmagan ish harakatni ifodalash uchun qo'llaniladi.

Masalan: Dantès resta à son poste, malgré la présence du pilote, **jusqu'à ce que** cette dernière manœuvre fût terminée ; (*Le comte de Monte –*

Cristo, page 7). (Lotsman shu yerda hozir bo'lishiga qaramay, Dantes ana shu oxirgi buyrug'i to'la bajarilmaguncha o'rnidan qimirlamadi). (Graf Monte – Kristo, 8-bet).

Sabab bog'lovchilari (Conjonctions de cause). Sabab ergash gaplar va iboralarni bog'lashga xizmat qiladigan bog'lovchilar: ***parce que, puisque, attend que, comme, du moment que, une fois que, vu que, non que, ce n'est pas que***va boshqalar.

Parce que (chunki, negaki, shuning uchunki) bosh gapda ifodalangan sababni ko'rsatadi, shuning uchun ergash gap tarkibida keladi.

Masalan: *Je veux dire, Mercédès que vous n'êtes si dure si cruelle pour moi que parce que vous attendez quelqu'un qui est ainsi vêtu. (Le comte de Monte - Cristo, page 22).* (Men shuni demoqchimanki, Mercedes, sen xuddi, men hozir aytgan kiyimdagi kishini kutyapsan, menga dag'allik va shafqatsizlik qilayotganingni sababi ham mana shunda). (Graf Monte – Kristo, 25-bet).

Puisque (chunki, negaki, shunday bo'lgach, modomiki, agarda) sabab bog'lovchisi. Bu bog'lovchi ergash gap tarkibida keladi va bosh gapdan oldin yoki keyin ifodalanishi mumkin.

Masalan: *-Mercédès ne veut pas y aller. - Bon, j'irai seul, puisque Mercédès ne veut pas y aller. (Le comte de Monte - Cristo, page 140).* (- Mercedes u yerga borishni xohlamaydi. – Yaxshi, agarda Mercedes u yerga borishni istamasa, men yolg'iz bo'laman). (Graf Monte – Kristo, 147-bet).

Du moment que...(chunki, negaki, modomiki), ***une fois que...***(bir yo'la, karra, zaxoti, zamon) bog'lovchisi ***puisque*** bog'lovchisiga yaqin, lekin sabab va payt munosabatni bir vaqtda sodir bo'lishini ifodalaydi.

Masalan: *-Vous ne connaissez point Mercédès, monsieur: du moment où elle a menace, elle exécuterait. (Le comte de Monte - Cristo page 30).* (Siz Mercedesning fe'lini bilmaysizda! Modomiki, u biror narsaga ahd qildimi, albatta bajo keltiradi). (Graf Monte – Kristo, 34-bet).

Natija ergash gap bog'lovchilari (Conjonctions de consequence).

Ushbu bog'lovchilar natija ergash gaplarni bog'lashga xizmat qiladi. Bu bog'lovchilar quyidagilar: **au point que, à ce point que, assez (trop)... pour que, tellement que, de sorte que de façon que, de manière que, si bien que** va boshqalar (agar bu bog'lovchilar sababni ifodalamagan bo'lsa).

Masalan: -*Dame! Il paraît que la chose lui est promise par M. Morrel.*
-**De sorte qu'il est bien joyeux?** (*Le comte de Monte - Cristo page, 18*).
(- *Chamamda Morrel unga va'da bergan, shekilli.... . – U juda o'zida yo'q xursand degin?*) (*Graf Monte – Kristo, 20-bet*).

- *Mon Dieu, monsieur, de la façon la plus imprévu: après une longue conversation avec le commandement du port, le capitain Leclère quitta Naples fort agité; au bout de ving-quatre heures, la fièvre le prit; trois jours après il était mort...*(*Le comte de Monte – Cristo, page 5*).
(*Qo'qqisidan. Port kapitani bilan uzoq gaplashib, san-manga bordi-da, shuning uchun Neopldan darg'azb chiqib ketdi, bir kechayu bir kunduz o'tgach, bezgagi xuruj qilib, uch kundan so'ng dunyodan o'tdi*). (*Graf Monte – Kristo, 5-bet*).

Si.... que (*shunchalar, shu darajada*), ba'zan **trop... pour que** yoki **assez...pour que** bosh gapdagi fikrni ergash gapga kuchaytirib bog'laydi.
Masalan: *La nuit était si noire qu'on ne voyait rien.* (*Le comte de Monte – Cristo, page 150*). (*Tun shunchalar qorong'u ediki, hech narsa ko'rinmas edi*). (*Graf Monte - Kristo, 147-bet*).

-*Mais, dit l'armateur suivant des yeux Dantès qui cherchait son mouillage, mais il me semble qu'il n'y a pas besoin d'être si vieux marin que vous le dites. Danglars pour connaître son métier, et voice notre ami Edmond qui fait le sien, ce me semble, en homme qui n'a besoin de demander des conseils à personne.* (*Le comte de Monte - Cristo, page 6*).
(-*Chamamda, - dedi armator kemaga joy tanlayotgan Dantesdan nazarini uzmay, - o'z ishini ustasi farangi bo'lmoq uchun keksa dengizchi bo'lish*

shart emas. Ana qarang, do'stimiz Edmonni. O'z vazifasini qanday mohirlik bilan bajo keltiryapti). (Graf Monte – Kristo, 7-bet).

Tant... que (shunchalar, qancha, shuncha), ba'zan **trop... pour que** va **assez** bosh gapdagi fikrni miqdor va kuchaytirish sababini ifodalaydi. Masalan: *D'après cette rue de la canebière les Phocéens modernes sont si fiers, qu'ils dissent avec le plus grand sérieux du monde et avec cet accent qui donne tant de caractère à ce qu'ils dissent: " Si Paris avait la Canebière, Paris serait un petit Marseille. (Le comte de Monte - Cristo, page 12). (Fokeliyaliklar bu ko'chani shunchalar ko'kka ko'tarib: "Parij ham Kanneber ko'chasi bo'lsaydi, Parij ham Marsel bo'lib qolardi" deb maqtashadi). (Graf Monte – Kristo, 13-bet).*

Au point que, à ce point que (har holda, holatda, ahvolda, darajada, bunchalar) ish- harakatni ko'tarinkiligi va o'sib borish darajasini ifodalaydi. Masalan: *Cette perspective d'un nouveau festin redoubla l'hilarité au point que le père Dantès, qui au commencement du dinner se plaignait du silence, faisait maintenant, au milieu de la conversation générale, de vains efforts pour placer son voeu de prospérité en faveur des futurs époux. (Le comte de Monte – Cristo, page 41). (Yana katta ziyofat bo'lishini eshitgach, mahmonlarning quvonchiga quvonch qo'shildi, ziyofat boshlanishida og'ir sukunatdan koyingan keksa Dantes endilikda shunchalar o'zida yo'q xursand. U shovqin- suron ichida, bo'lajak er-xotin uchun qadah ko'tarishini taklif qilaman deb rosa qichqirdi). (Graf Monte– Kristo, 45-bet).*

Maqsad ergash gap bog'lovchilari. (Conjonctions de but). Maqsad ergash gaplar hokim gapdan anglashilgan ish- harakatning nima maqsadda yuzaga kelishini anglatadi va ular quyidagi bog'lovchilar yordamida bog'lanadi: **de sorte que, de manière que, de façon que, afin que, pour que, de crainte que, de peur que** va boshqalar. Maqsad ergash gaplarda uzluksiz davom etadigan ish harakatni aniq maqsadini ifodalovchi bog'lovchilar **pour que** va **afin que**.

Masalan: **Pour que** (uchun) - *Allons, allons mon cher Edmond, continua l'armateur, que je ne vous retienne pas, vous avez assez bien fait mes affaires pour que je ne vous donne tout loisir de faire les vôtres. (Le comte de Monte - Cristo, page 10). (- Mayli, Edmon, sizga javob. Siz mening ishlarimni juda boplab bajo keltirdingiz, endi men ham sizga ishlaringizni bitirib olmoq uchun erkinlik bermog'im lozim). (Graf Monte – Kristo, 11-bet).*

Qiyoslov-chog'ishtiruv ergash gap bog'lovchilari. (Conjonctions de comparaison). Qiyoslov- chog'ishtiruv bog'lovchilari gapdagi sifatni, holatni va ish- harakatni darajasini qiyoslashda foydalaniladi va ular quyidagi bog'lovchilar yordamida bog'lanadi: **comme, comme si, de meme que, ainsi que, autant que, tant que, plus que, moins que, aussi ... que, si ... que, tellement** **que** va boshqalar. Chog'ishtiruv qo'shma gaplarda holat qiyoslangan bo'lsa **comme** va **comme si** bog'lovchilari qo'llaniladi.

Masalan: *Et à ces mots la jeune fille fixa son visage impérieux sur le Catalan, qui, comme s'il eût été fasciné par ce regard, s'approcha lentement d'Edmond et lui tendit la main. (Le comte de Monte - Cristo, page 24). (Shunday dedi-yu, qiz katalanalik yigitga amirona tikildi. Fernan esa sehrlangan kishidek asta yurib Edmonning oldiga keldi-da, unga qo'lini uzatdi). (Graf Monte – Kristo, 27-bet).*

Chog'ishtiruv ergash gaplarda sifat va daraja qiyoslanayotgan bo'lsa **aussi... que, si... que, moins... que, plus... que** bog'lovchilari ishlatiladi.

Masalan: **Aussi... que** (xuddi, -dek, -day, qancha... bo'lsa, shuncha)-Non, mais elle se fera, dit Caderousse, **aussi** vrai **que** Dantès sera le capitaine du Pharaon, n'est pas Danglars? (Le comte de Monte – Cristo, page 27). (To'y bo'lishi turgan gap, - dedi Kadruss. –Dantesning “Faraon” kemasiga kapitan bo'lishiga hech shubha bo'lmaganidek, Mercedesning eri bo'lib olishga ham hech qanday shak- shubha bo'lishi mumkin emas, to'g'rimi, Danglar?). (Graf Monte –Kristo, 30-bet).

Agar chog'ishtiruv ergash gapli qo'shma gaplarda sifat va holat qiyoslanayotgan bo'lsa, **autant que, plus que, moins que** va boshqalar ishlatiladi. Bu bog'lovchilar otga va fe'lga birikib keladi.

Masalan:**Plus que** (ko'ra ortiqroq, ko'proq): *Non, mon cher Caderousse, répondit Dantès, je ne suis pas fier, mais je suis heureux, et le bonheur aveugle, je crois, encore plus que la fierté. (Le comte de Monte - Cristo, page 28).* (Azizim Kadruss, aslo unday emas, - javob qildi Dantes. – Men zarracha kibrlanganim yo'q. Faqat baxtiyorman, baxtiyor! Kibrga qaraganda, baxt kishini ko'proq mast- alast qilsa kerak.) (Graf Monte – Kristo, 32-bet).

Tant que (shunchalar ko'p, qancha, shuncha): *Ivrogne tant que tu le voudras; tant pis pour ceux qui craignent le vin, c'est qu'ils ont quelque mauvaise pensée qu'ils craignent que le vin ne leur tire du coeur. (Le comte de Monte - Cristo, page 31).* (Mayli men aroxo'r bo'lsam bo'la qolay, biroq bundan men emas, vinodan qo'rqadiganlar yutqazadi, aslida ularning fikri buzuv, vino oshkora qilib qo'ymasin tag'in, deb qo'rqishadi-da.) (Graf Monte – Kristo, 35-bet).

Moins que (ozroq, kamroq): *- S'il y a méprise, monsieur Morrel, répondit le commissaire, croyez que la méprise sera promptement réparée; en attendant, je suis porteur d'un mandat d'arrêt; et quoique ce soit avec regret que je remplisse ma mission, il ne faut pas moins que je la remplisse: lequel de vous, messieurs, est Edmond Dantès? (Le comte de Monte - Cristo page 42).* (Mobodo anglashilmovchilik yuz bergan bo'lsa, janob Morrel, tezda aniqlanadi. Hozircha menda qamoqqa olish haqida buyruq bor, afsuslanib bo'lsa ham men uni bajarishim shart. Janoblar, orangizda Edmon Dantes degan kishi kim?). (Graf Monte – Kristo, 47-bet).

Hol ergash gaplarni bog'laydigan bog'lovchilar. (Conjonctions de manière). Hol ergash gaplar bajarilayotgan ish- harakatni bajarilash tarzini ko'rsatadi va ular quyidagi bog'lovchilar yordamida bog'lanadi: **de sorte que, de manière que, de façon que, sans que, comme** va boshqalar. Hol

ergash gap bog'lovchilarni chog'ishtiruv va natija ergash gap bog'lovchilari bilan adashtirmaslik kerak, chunki ular shaklan bir- biriga o'xshash.

Masalan:**Comme** (qanchalik, qanday): - *Je ferai comme il vous plaira. (Le comte de Monte - Cristo, page 105). (- Men buni siz istaniningizdek bajaraman. (Graf Monte – Kristo, 107-bet).*

-Nous rapportons à sa veuve sa croix d'honneur et son épée. C'était bien la piene, continua le jeune homme avec un sourire mélancolique, de faire dix ans la guerre aux Anglais pour en arriver à mourir, comme tout le monde, dans son lit. (Le comte de Monte - Cristo, page 5). (Salb shamshirini bevasiga topshirish uchun olib keldik, rosa o'n yil inglizlar bilan jang qilib, kelib-kelib hamma qatori to'shakda jon bersa-ya, bechora! - dedi yigitcha qayg'uli ohangda.) (Graf Monte – Kristo, 5-bet).

De sorte que, de manière que, de façon que: - *Dame! il paraît que la chose lui est promise par M. Morrel. -De sorte qu'il est bon joyeux? (Le comte de Monte - Cristo, page 18). (- Chamamda Morrel va'da bergan, shekilli... – U juda o'zida yo'q xursand degin?). (Graf Monte – Kristo, 20-bet).*

Manière que: *Les morceaux de la cruche introduits dans les intervalles se brisaient lorsque Dantès voulait s'en servir en manière de levier. (Le comte de Monte - Cristo, page 141). (U sopol bo'laklarini tirqishga qo'yib, bosib ko'rgan edi, sopol sinib ketdi). (Graf Monte – Kristo, 160-bet).*

Sans que bog'lovchisi hol ergash gapda inkor ma'nosini beradi.

Masalan : *-Oui mais, ajoutais – je... pour vous tirer de peine il suffit que Dantès n'épouse pas celle que vous aimez : et le mariage peut très bien manquer, ce me semble, sans que Dantès meure. (Le comte de Monte - Cristo, page 31). (-Ha, shunday. Sizga yordam berish uchun Dantesning sevgilingizga uylanishi yo'l qo'ymaslik kerak. Dantesning o'limisiz ham, to'yni qoldirishning yo'li oson). (Graf Monte – Kristo, 35-bet).*

Shart ergash gap bog'lovchilari (Conjonctions de condition). Shart ergash gap bog'lovchilari quyidagilar: *si, à condition que, supposé que, à supposer que, à moins que, en cas que, au cas où, à moins que, pourvu que, pour peu que, quand, quand même, quand bien même que* va boshqalar. Quyida ushbu bog'lovchilar qo'llangan misollarni ko'ramiz :

Si (agar, agarda, bordi-yu, basharti, mobodo, - sa) : -Vous ne pouvez rien tenter de tout cela, Fernand ; vous êtes soldat, et **si** vous restez aux Catalans, c'est parce qu'il n'y a pas de guerre. (Le comte de Monte - Cristo, page 22). (Bularni birontasini sen eplay olmaysan, Fernan . Sen soldatsan, xayriyatki urush yo'q, agar urush boshlansa sen Katalanida bir daqiqa ham turolmaysan.) (Graf Monte – Kristo, 22-bet).

A supposer que, supposé que (faraz qilmoq, deb o'ylamoq, hisoblamoq, tasavvur qilmoq) : -Je le **suppose que** diable peut faire un grand garçon de vingt et un ans à une belle fille de dix-sept ? (Le comte de Monte - Cristo, page 19). (Chamamda, shunday, yo'qsa yigirma yoshlik barzangi yigit bilan o'n yetti yoshlik sohibjamol qiz o'rtasida bundan boshqa nima bo'lishi mumkin ?) (Graf Monte – Kristo, 21-bet).

Pourvu que : -Trouvez le moyen, et je l'exécute, **pourvu qu'il** n'y ait pas mort d'homme, car Mercédès a dit qu'elle se tuerait si l'on tuait Dantès. (Le comte de Monte - Cristo, page 32). (Siz o'sha dalil- da'voni toping, uni amalga oshirishni esa menga qo'yib bering. O'ldirishdan boshqasiga tayyorman, chunki uni o'ldirsalar men ham o'laman, - dedi u). (Graf Monte – Kristo, 37-bet).

En cas que, au cas où (u holda, agar... qachonki, agar...) : -**En ce cas,** reprit Caderousse, qu'on nous donne du vin : je veux boire à la sante d'Edmond et de la belle Mercédès. (Le comte de Monte - Cristo, page 35).(-Unday bo'lsa, - dedi davom etib Kadruss, - yana vino keltiring ! Men Edmonning va go'zal Mercedesning sog'lig'i uchun ichaman). (Graf Monte-Kristo 40-bet).

Pour peu que (ozgina, salgina) : **Pour peu qu'on** le contraire, il devient agressif. (Unga salgina qarshilik qilsang, u tajovuzkor bo'lib qoladi). (Graf Monte – Kristo, 5-bet).

A moins que (-sa agar, -dan tashqari, agar) : -Décidément le destin d'Edmond l'emporte ; il épousera la belle fille, il sera capitaine et se moquera de nous ; **à moins que...** un sourire livide se dessina sur les lèvres de Danglars, - **à moins que** je ne m'en mêle, ajouta-t-il. (Le comte de Monte - Cristo, page 28). (Demak, baxt qushi Edmonning boshiga qo'narkanda, u go'zalga uylandi, kapitan bo'lib oladi-yu, bizning masxaramizni chiqaradi, - dedi). (Graf Monte – Kristo, 31-bet).

Quand, quand même, quand bien même (qachonki, har holda, shunday bo'lsa ham) : **Quand bien même** il pleuvrait à verse, nous devrions sortir on nous attend. (Le comte de Monte - Cristo, page 108). (Kuchli jala yog'ayotgan bo'lsa ham biz tashqariga chiqishimiz kerak bo'ladi, u bizni kutyapti). (Graf Monte – Kristo, 115-bet).

To'siqsiz ergash gap bog'lovchilari. (Conjonctoins de concession).
To'siqsiz ergash gap bog'lovchilari quyidagi bog'lovchilar orqali kelishi mumkin : **bien que, quoique, encore que, si... que, quelque... que, quoi... que, qui... que, où que, tout... que, quel que** va boshqalar.

Quoique, bien que, encore que bu bog'lovchilar gapda to'siqsizlik va ziddlik ma'nosini beradi. Masalan : **Quoique** (qaramay, garchi, -sa ham) : - Mais je crois que oui, mon cher Edmond, **quoique** je ne l'aie pas aperçu. (Le comte de Monte - Cristo, page 9). (- Men azizim Edmond, otangizni ko'rmagan bo'lsam ham, biroq o'ylaymanki, u sog'- salomat bo'lsa kerak). (Graf Monte – Kristo, 10-bet).

Bien que (qaramasdan) - Dame ! que voulez- vous, monsieur Edmond, reprit l'armateur qui parassait se consoler de plus en plus, nous sommes tout mortels, et il faut **bien que** les anciens fassent place aux nouveaux, sans cela il n'y aurait pas d'avancement ; et du moment que vous m'assurez que la cargaison... (Le comte de Monte - Cristo, page 5). (-

Choramiz qancha, Edmon ! - dedi tobora ko'ngli yumshab borayotgan karchalon. –Bu o'lim hammamizning boshimizda, xullas, keksalar o'rnini yoshlarga bo'shatib berishlari lozim, busiz butun hayot o'rnidan qimirlamay qolgan bo'lardi-da. Demak, gapingizdan ma'lum bo'ladiki, yuk...). (Graf Monte – Kristo, 6-bet).

Si... que : Un immense bonheur les isolait du monde, et ils ne parlaient que par ces mots entrecoupés qui sont les élans d'une joue **si** vive **qu'**ils semblent l'expression de la douleur. (Le comte de Monte- Cristo, page 23). (Ikki benihoya baxtiyor, quvonch-la mast- alast bo'ldi-yu butun dunyoni unutdi- qo'ydi, shu onda so'zlari ham bir- biriga qovushmas edi). (Graf Monte - Kristo, 26-bet).

Tout... que : Laissez- le dire, reprit Danglars en retenant le jeune homme, et d'ailleurs, **tout** ivre **qu'**il est il ne fait point si grande erreur. (Le comte de Monte - Cristo, page 31). (Qo'y uni, - dedi Danglar katalanilik yigitni to'xtatib, - mast bo'lsa-da, haqiqatga yaqin gapni aytayapdi). (Graf Monte – Kristo, 35-bet).

Quelque... que, quel... que bog'lovchilari to'siqsiz ergash gapda sifat ma'nosi beradi. Masalan :**Quelque... que** (qanday bo'lsa ham) : Quelle que soit votre résolution, ne nous la cachez pas. (Fikringiz qanday bo'lsa ham uni bizdan yashirmang). (Graf Monte - Kristo, 115-bet).

Soit que... soit que va que... que bog'lovchilari gapda ketma- ketlikni ifodalaydi.

Masalan : **Que** tu le veuilles ou **que** tu ne veuilles pas, je reste.

Soit que ... : Soit qu'il l'eût oublié, **soit qu'**il ne comrît pas, il ne répondit rien. (Yo u uni unutgan, yo tushunmagan, u hech narsa demadi).(Graf Monte - Kristo, 145-bet).

II bobga xulosa

Ushbu bobda biz bog'lovchilarni qo'shma gaplarda qo'llanishini, ularni mazmun munosabatiga ko'ra turlarini ko'rib chiqdik. Fransuz tilidagi ba'zi sodda bog'lovchilar, ularning gapdagi ma'no-vazifalarini ko'rdik. Biz bilamizki, bog'lovchilar gaplarni bog'lash xususiyatiga ko'ra teng va ergashtiruvchi, qo'llanish xususiyatiga ko'ra esa yakka va takroriy bog'lovchilarga bo'linadi. Teng bog'lovchilarni ham mazmun-munosabatiga ko'ra bir necha turlarga bo'ldik hamda har birining o'ziga xos va o'xshash jihatlarini misollar orqali ko'rsatib berdik. Fransuz tilida shunday bog'lovchilar ham borki, ular gapning mazmuniga qarab bosh ma'nosidan ikkinchi darajali ma'nosini qo'llaganimizda o'zbek tiliga muqobil ma'noda chiroyli tarjima chiqarishimiz mumkin bo'ladi.

Ergashtiruvchi bog'lovchilarni ham turlarga ajratgan holda sodda gaplarni bir-birida ergashtirish yo'li bilan bog'lash xususiyatlarini ko'rib chiqdik va to'rtta asosiy sodda ergashtiruvchi bog'lovchilarga ham alohida to'xtalib o'tdik. Ergashtiruvchi bog'lovchilar ham qo'shma gaplarni yasashda muhim rol o'ynaydi. Biz ularning ko'pchiligini bu bo'limda keltirib o'tdik va misollar yordamida ularning vazifalari hamda xususiyatlarini to'liqroq berishga harakat qildik.

III bob

BOG'LOVCHILI SO'Z VA KONSTUKSIYALAR

3.1 Qo'shma bog'lovchilar.

Alors que bog'lovchisi odatda payt ergash gapni bog'lab, **tandis que, pendant que** bog'lovchilari bilan sinonim bo'la oladi va “bu vaqtda”, “xuddi shunda”, “shu paytda” deb tarjima qilinib, ko'proq kitoblarda, matnlarda ishlatiladi.

Masalan: *A Marseille, malgré l'attitude de ses magistrates, commença à sentir fermenter en elle ces brandes de guerre civile toujours mal éteints dans le Midi; peu s'en fallut **alors que**les représailles n'allassent au-delà de quelques charivaris don't on assiégea les royalists enfermés chez eux, et des affronts publics don't on poursuivit ceux qui se hasardaient à sortir. (Le comte de Monte - Cristo, page 111). (Marselda, mahalliy boshliqlarning qarshiligiga qaramay, janubda hamisha bo'lib turadigan o'zaro jang boshlandi, ish xavfli tus olib borar, uyida tuxum bosib o'tirgan royalistlarga qarata dandonbozlar ko'chaga chiqishga jur'at etganlarni jamoat oldida haqorat qilish bilangina cheklanib qolmaydiganga o'xshardi.) (Graf Monte - Kristo, 126-bet).*

Alors que zidlov bog'lovchi sifatida ham kelib, “biroq” deb tarjima qilinishi mumkin.

Tandis que. *Lorsque sept heures du soir s'approchèrent les angoisses de Dantès commencèrent véritablement. Sa main, appuyé sur son coeur, essayait d'en comprimer les battements **tandis que** de l'autre il essuyait la sueur de son front qui ruisselait le long de ses tempes. (Le compte de Monte - Cristo, page 202). (Soat yettiga yaqinlashgani sari Dantesning vahimasi kuchaya bordi. Qinidan chiqib ketayotgan yuragini tinchitish uchun qo'lini ko'ksiga bosar, ikkinchi qo'li bilan betidagi munchoq- munchoq oqayotgan terni artardi, (Graf Monte - Kristo, 227-bet).*

A moins que qo'shma bog'lovchisi ergash gaplarda shartlilik, chegaralovchi ma'nolarda kelib, "nahotki", "agar", "faqat" deb tarjima qilinadi. Ergash gapda fe'l oldida "emas" so'zi qo'llanishi mumkin, "ehtimol" bog'lovchisi qo'llanganda inkor shakl qo'llanilmaydi.

Masalan: - *Quant à prendre la commémoration du navire, dit l'armateur, c'était son devoir comme scond, quant à perdre un jour et demi à l'île d'Elbe, il a en tort, à moins que le navire n'ait en quelque avarice à réparer. (Les comte de Monte Cristo, page 6). (- Jamoani qo'liga olib, - dedi armator, - to'g'ri qilibdi, kapitan yordamchisi sifatida o'z burchini bajaribdi. Agar faqat kemani ta'mirlashga ehtoyoj tug'ilmagani holda ehtimol Elbada bir yarim kunni bekorga o'tkazish xato, albatta). (Graf Monte Kristo, 7-bet).*

Attendu que qo'shma bog'lovchisi ergash gapda sabab ma'nosini ifodalaydi va har doim ergash gap oldidan qo'llaniladi. Bu qo'shma bog'lovchi yuridik nutqlarda, rasmiy hujjatlarda va ilmiy-tenik adabiyotlarda qo'llaniladi, "shuni hisobga olib" deb tarjima qilinadi.

Masalan: - *Parfaitement, quoique, j'eusse bien pu accepter, attendu que c'est moi qui lui ai mis à la main les premières blanches qu'il a maniées. (Le compte de Monte - Cristo, page 18). (- Ochig'ini aytsam, uning kapitan bo'lmagani yaxshi, - dedi so'zini davom ettirib Kadruss, shuni hisobga olib, u kapitan bo'lib qolsa bormi, biz bilan gaplashmay qo'yadi). (Graf Monte - Kristo, 20-bet).*

Au point que. Qo'shma bo'g'lovchisi natija ergash gapni ifodalaydi va "shu darajadaki" deb tarjima qilinadi.

Masalan: - *Monsieur, dit Caderouss, ils m'avaient fait boire tous deux au point que j'en avais à peu près perdu la raison. Je ne voyais plus qu'à travers un nuage. (Le compte de Monte - Cristo, page 264). (- Janob abbat, - javob qildi Kadruss, ular meni shu darajada ichirib mast qilib qo'yishdiki, aqlimni yo'qotib qo'yib, ko'zim xira tortib ularni zo'rg'a ko'radigan bo'lib qoldim). (Graf Monte - Kristo, 294-bet).*

Bu qo'shma bog'lovchi ko'rsatish olmoshi **ce** qo'shimcha komponenti bilan ham kelishi mumkin. Mazkur qo'shma bog'lovchi komponentlari birgahda yoki alohida kelishi unchalik muhim rol o'ynamaydi, "shunchaki", "shu qadar" deb tarjima qilinadi.

De + ega + que bog'lovchilaridan iborat qo'shma bog'lovchilar **de façon que, de manière que de sorte que** natija ergash gapni ifodalaydi va har doim ergash gapdan oldinda keladi, "chunki", "shunday" deb tarjima qilinadi.

Masalan: *Albert s'attendait à montrer, cette fois du moins, quelque chose du nouveau à l'étrange voyageur; mais, à son grand étonnement, celui-ci, sans avoir besoin de chercher les signataires, dont quelques-unes d'ailleurs n'étaient présentes que par des initials, chaque auteur a son oeuvre, de façon qu'il était facile de voir que non seulement chacun de ces noms lui était connu, mais encore que, chacun de ces talents avait été apprécié et étudié par lui. (Le compte de Monte - Cristo, page 488).* (Alber endi bu ajib xoriyini hayratda qoldirdim, deb umir qilgandi, ammo graf Alberni hayratda qoldirib, imzolarga qaramasdanoq har bir suratning muallifini shartta- shartta aytib beraverdi, u rassomlarning familiyasini bilibgina qolmay, hotto har bir mo'yqalam ustaning talantini o'rganib, baho berishga ulgurgan edi.) Graf Monte - Kristo, 535-bet).

De manière que. Misol: *Comme les rats qui, dit-on, quittent peu à peu un bâtiment condamné d'avance par le destin à périr en mer, de manière que ces hôtes égoïstes l'ont complèment abandonné au moment où il lève l'ancre, de même, nous l'avons dit, toute cette foule de commis et d'employés qui tirait existence de la maison de l'armatuer avait peu à peu déserté bureau et magasin. (Le comte de Monte - Cristo, page 281).* (Halokatga yuz tutgan kemadan kalamushlar har tomonga tiraqaylab qochganidek, taqdiri armator firmasining qo'lida bo'lgan xizmatchilarning hammasi asta- sekin kantorani tashlab juftakni urishdi). (Graf Monte - Kristo, 313-bet).

De sorte que : -Ainsi, continua l'Anglois, qui reprit le premier, son sang- froid, ainsi le fugitif fut noyé.

-Bel et bien.

-**De sorte que** le souverneur du châteu fut débarassé à la fois du furieux et du fou? (Le compte de Monte – Kristo, page 278).

(- Shunday qilib, - dedi ingliz o'zini kulgidan bosib, - shunday qilib qochoq dengiz tagiga cho'kib ketdi deng.

-Ha toshdek cho'kdi- ketdi.

- If komendanti bir yo'la jinnidan ham, qutirgandan ham bir yo'la qutilib qo'ya qolibdi-da?). (Graf Monte – Kristo, 310- bet).

Zamonaviy so'zlashuv tilida qo'shma bog'lovchilar - **de façon à ce que, de manière à ce que** shakllari ko'p uchraydi. **De sorte que** qo'shma bog'lovchi o'rniga en sorte que ko'p uchraydi.

Du fait que qo'shma bog'lovchisi sabab ergash gapni ifodalaydi va “shundan”, “shu sababli” deb tarjima qilinadi. **Du fait que** bog'lovchisiga **seul** sifati qo'shilishi mumkin.

Du moment que qo'shma bog'lovchisi sabab ergash gapni ifodalaydi.

Masalan: - Aussi, dit Danglars, tu as vu que la chose n'a pas eu de suite; ce pauvre M. Fernand était si bouleversé qu'il m'avait fait de la peine d'abord; mais **du moment qu'il en a pris son parti**; au point de s'être fait le premier garçon de noces de son rival, il n'y a plus rien à dire. (Le comte de Monte Cristo, page 41). (- Axir biz niyatimizdan qaytganimizni o'zing ko'rding-ku, - dedi Danglar. – Bechora Fernan kecha shu qadar g'amgin va dilxasta ediki, dastlabki daqiqalarda unga rahmim keldi. Ammo u taqdirga tan berib, hatto raqibiga kuyov jo'ra bo'lishiga rozilik bergandan so'ng, hech qanday gapga o'rin qolmadi). (Graf Monte Kristo, 46- bet).

Étant donné que qo'shma bog'lovchisi **donner** fe'lining hozirgi zamon sifatdoshidan tashkil topgan, ilmiy-texnik, yuridik va rasmiy hujjarlarda qo'llaniladi. Sabab ergash gaplarni ifodalaydi, “shuni hisobga olib” deb tarjima qilinadi.

Lorsque. Qo'shma bog'lovchisi ko'pincha payt ergash gaplarni ham ifodalashi mumkin, lorsque quand bog'lovchisi bilan sinonim bo'lishi mumkin va “qachon” deb tarjima qilinadi. To'siq ergash gapni ifodalovchi **lorsque** bog'lovchisiga meme yuklamasini qo'shish orqali kuchaytirilishi mumkin. “hatto agar”, “hatto shunda ham” deb tarjima qilinadi.

Masalan: *Il dessinait dans ce cercle de lignes géométriques forte nettes, et parraissait aussi occupé de résoudre son problem qu'Archimède l'était, lorsqu'il fut tué par un soldat de Marcelles. (Le comte de Monte - Cristo, page 125).* (U devordan ko'chirib olingan oxak parchasi bilan doira chizib, unga juda aniq geometrik chiziqlar chizyapti. Soldat Marsella joniga qasd qilgan paytda Arximed o'z ishiga qanday berilib ketgan bo'lsa, abbat ham shu daqiqada geometrik masalani yechishga butun vujudi bilan berilib ketgan edi). (Graf Monte - Kristo, 142-bet).

Maintenant que.Qo'shma bog'lovchisi payt ergash gapni ifodalaydi, lekin bu bog'lovchi sabab ergash gapda ham kelishi mumkin.

Masalan: - *Pardon, monsieur Morrel, dit Dantés en s'approchant; maintenant que le navire est monillé, me viola tout à vous: vous m'avez appelé je crois? (Le comte de Monte - Cristo, page 7).* (- Janob Morrel, uzr, - dedi Dantes yaqin kelib, -langar uzatildi, endi xizimatingizga tayyorman. Siz meni Chaqirdingiz chog'i?). (Graf Monte - Kristo, 8-bet).

-*Mais, demanda Morrel, n'y a-t-il pas moyen de presser les formalités, maintenant que non triomphons? J'ai quelques amis, quelque infenence: je puis obtenir mainlevée de l'arrêt. (Le comte de Monte Cristo, page 115).* (- axir, -dedi Morrel, - bu rasmiyatchilikni tezlashtirsa bo'lmaydimi? Biz g'olib chiqdik. Mening do'stlarim bor, yuqori martabalilar bilan

aloqam yaxshi, shuning uchun hukmni bekor qildirishim mumkin). (Graf Monte Kristo, 130-bet).

Non que, non pas que. Inkor etish “**non**”dan iborat qo’shma bog’lovchi **non que, non pas que** sababni rad etuvchi ergash gaplarda qo’llanilib, “shuning uchun emas”, “bu degani emas” deb tarjima qilinadi.

Masalan: - *Je crois, en vérité, que c’est ce qu’il y a de mieux à faire, dit le prêtre; non pas que je tiennne à savoir les choses que vous voudriez me cacher; mais enfin, si vous pouvez m’amener à distribuer, ce sera mieux. (Le comte de Monte Cristo, page 260).* (Ochig’ini aytganda, yaxshisi shunday qilganingiz ma’qul, - dedi abbat. – Bu sir saqlamoqchi bo’lgan narsalarimni bilib olish uchun shunday deyapti deb o’ylamang, faqat marhumning xohishi asosida merosni taqsimlashga yordam berasiz, deb shunday deyapman). (Graf Monte Cristo, 288-bet).

Parce que. Qo’shma bog’lovchisi sababni ifodalovchi ergash gaplarda keladi. Ergash gaplardagi sabablar “bo’lishi kerak” deb tarjima qilinadi.

Masalan: - *Mais pourquoi êtes-vous enfermé vous?*

-*Moi? Parce que j’ai rêvé en 1807 le projet que Napoléon a voulu réaliser en 1811; parce que, comme Machiavel, au milieu de tous ces principicules qui faisaient de l’Italie un nid de petits royaumes tyranniques et faibles, j’ai voulu un grand et seul empire, compact et fort. (Le comte de Monte Cristo, page 151).* (- Sizni nima uchun qamadilar? - Menimi? Shuning uchunki, Napoleon 1814-yilda amalga oshirmoqchi bo’lgan rejasini men 1807-yilda orzu qilgan edim; shuning uchunki, Italiyada in qurib olgan va lapashang, zaif johillar idora qilayotgan mayda -chuyda knyazliklar o’rniga men, Makivelli kabi, yagona bir butun va qudratli ulug’ davlat bo’lishini istagan edim) (Graf Monte Kristo, 172-bet).

Pour que. Qo'shma bog'lovchisi maqsad ergash gaplarda voqealarni ketma-ketligini va sababini ifodalaydi, “*shuning uchun*”, “*buning uchun*”deb tarjima qilinadi. Pour que ketma-ketlikni ifodalashda **assez, trop, suiffisement** ravishlari bilan kelishi mumkin. Kesim **suiffire** fe'li bilan ifodalansa, “*uchun*” bog'lovchisi bilan tarjima qilinadi.

Masalan: *Derrière lui il écrivit sur le mur, avec un morceau de plâtre détaché de son plafond, 30 juillet 1816, et à partir de ce moment, il fit un cran chaque jour pour que la mesure du temps ne lui échapat plus. (Le compte de Monte Cristo, page 129). (U shiftdan uzilib tushgan oxak parchasi bilan devorga yozib qo'ydi: 1816-yil 30-iyul. O'shandan boshlab vaqt hisobidan adashmaslik uchun har kuni belgi qo'yib bordi). (Graf Monte Kristo, 148-bet).*

Sabab bog'lovchisi sifatida **pour que** “*shunday ekan*” deb tarjima qilinadi. Bu sabab bog'lovchisi ergash gapdan farq qiladi, uning kesimi har doim bosh gapdan oldin turadi, uning kesimi murakkab zamonlardan biri *subjonctif* bilan ifodalanadi. Maqsad ergash gap bosh gapdan oldin va keyin turishi mumkin, uning kesimi *subjonctif*ning oddiy zamonlaridan biri bilan ifodalanadi.

Pour peu que. Qo'shma bog'lovchisi shartli to'siqli gapni tashkil etib, “*agar faqat*”, “*qilish kifoya*” deb tarjima qilinadi.

Pourvu que. Qo'shma bog'lovchisi shartli to'siqli gapda bo'lib, “*agar faqat*”, “*shunchaki*” deb tarjima qilinadi.

Masalan: - *Dans un excellent, madame, je vous en reponds, dit l'abbé. Votre mari n'a donc rien à craindre, pourvu qu'il répondra franchement. (Le compte de Monte Cristo, page 257). (- Eng yaxshi niyat bilian so'rayapman bekam, - dedi abbat, - ishontirib aytamanki, eng yaxshi niyatlar bilan. Eringiz aslo xavotir olmasin, faqat haqiqatni aytib bersa bas, menga). Graf Monte Kristo, 285-bet).*

Puisque. Qo'shma bog'lovchisi sabab ergash gaplarda keladi va “*shundanda*”, “*chunki*” deb tarjima qilinadi.

Masalan: - *Mais la moitié de la besogne est faite au moins, **puisque** sur deux voix vous en avez déjà une. -C'est selon le sens que vous attachez à cette question, monsieur. (Le compte de Monte Cristo, page 11). (- Ishning yarmi bitgan, chunki ikki ovozdan biri sizniki, ikkinchisini ham sizga tobe etishni menga qo'yib beravering. - Mamnun bo'ldim ham, bo'lmadim ham). (Graf Monte Kristo, 12-bet).*

Sans que. Qo'shma bog'lovchisi ketma- ketlikni ifodalaydi. **Sans que** bilan keluvchi ketma-ketlik ergash gaplarda “binobarin” bog'lovchisi bo'lishsizlik ma'nosida kelishi mumkin.

Masalan: *Et, avec un sourire où la joie et le bonheur se révélaient, il quitta l'abri où il était caché et **sans que** personne fit attention à lui, tant chacun était préoccupé de l'événement du jour, il descendit un des ces petits escaliers qui servent de débarcadère et hêla trois fois: -Jocopo! Jocopo! Jocopo! (le compte de Monte Cristo, page 309). (U quvonchga to'lib jilmayib qo'ydi, so'ng pastqam joyni tashlab, bu kunning ajoyibotlariga maftun bolib qolgan kishilarga sezdirmay, kemalar oldidagi bir zinadan tushdi-da, uch marta: - Jakopo! - deb chaqirdi). (Graf Monte Kristo, 343-bet).*

Sinon. Ushbu bog'lovchi si bog'lovchisidan tashkil topgan, cheklanish, chegaralanish ma'nolarini ifodalab, “nahotki”, “undan tashqari”, “agar yo'q” kabi tarjima qilinadi. **Sinon**murakkab ergash gapda ba'zan alternativni ifodalash uchun qo'llanadi va “aks holda”, “o'zgacha”, “bo'lmasa” deb tarjima qilinadi.

Masalan: - *Vous reverrons-nous pour donner des nouvelles? - demanda la comtess.-Oui, si la chose n'est pas grave; **sinon**, je ne répons pas de ce que je vais devenir moi- même. (Le compte de Monte Cristo, page 433). (-Siz bu yoqqa qaytib, bo'lgan voqeani aytib berasizmi? - so'radi grafinya. - Agar biror kor-hol yuz bermagan bo'lsa, yo'qsa holim nima kechishini kim bilib o'tiribdi deysiz). (Graf Monte Kristo, 472-bet).*

Si bien que. Qo'shma bog'lovchini **si ... que** qo'shma bog'lovchisi bilan almashtirmaslik kerak, unda bien ravishi o'zining leksik ma'nosini saqlaydi va bog'lovchi komponenti hisoblanmaydi, **“shunday yaxshi”, “shunchalik yaxshiki”** deb tarjima qilinadi.

Masalan: - *Savez -vous, savez- vous que pour loger toute reste terre et toutes ces pierres que j'enterrais, il m'a fallu parcer la voûte d'un escalier, dans le tambour duquel tous ces décombres ont été tour à tour ensevelis; si bien qu'aujourd'hui le tambour est plein, et que je ne saurais plus où mettre une poignée de poussière? (Le compte de Monte Cristo, page 153).* (- Bilasizmi kavlab olgan tuproq va toshlarni yashirish uchun devorni teshib, ularni zinapoya ostiga tashlashga majbur bo'ldim, endi esa u yer tepacha bo'lib yotibdi; binobain endilikda men bir siqim tuproq qo'yadigan joy topolmayman). (Graf Monte Kristo, 173-bet).

Soit... que soit... que. Ushbu juft qo'shma bog'lovchilar ayiruv munosabatidagi ergash gapda qo'llaniladi va “yoxud ... yoxud” deb tarjima qilinadi.

Masalan: -*Tant d'animaux immondes étaient venus faire leur bruit dans cette prison que peu à peu Edmond avait habitué son sommeil à ne pas se troubler de si peu de chose; mais cette fois, soit que ses sens feussent exaltés par l'abstinence, soit que réellement le bruit fût plus fort que de coutume, soit que dans ce moment suprême tout acquît de l'importance, Edmond souleva sa tête pour mieux entendre. (Le compte de Monte - Kristo, page 136).* (- Bu turmada jirkanchli qurt-qumursqalarning son-sanog'i yo'q bo'lib Edmon bunday arziyas hodisalardan taajjublanmay, bemalol uyquni uraverishga asta-sekin odatlanib qoldan edi. Bu gal esa, ochlik zehnni o'tkirlatib yubordanidanmi, hayotning so'nggi daqiqalarida hamma narsa ahamiyat kasb etib qolganidanmi, Edmon boshini ko'tarib, quloq soldi). (Graf Monte - Kristo, 155- bet).

Tandis que qo'shma bog'lovchisi payt ergash gapda qo'llaniladi, lekin ba'zida to'siq ergash gap ham bo'lib kelishi mumkin, "bu vaqtda kabi" deb tarjima qilinadi.

Masalan: - *Monsieur, vous ne risquez rien ainsi, et vous voyez bien que ce n'est pas pour me ménager une chance pour me sauver, puisque je resterai en prison tandis qu'on fera le voyage. (Le compte de Monte - Cristo, page 128). (- Bunday sharoitda siz aslo xavflanmasangiz bo'ladi, o'zingiz ko'rib turibsizki, qochish yo'lini axtarayotganim yo'q; oltinni topgunlariga qadar men turmada qolaman). (Graf Monte - Cristo, 146-bet).*

Tant que qo'shma bog'lovchisi payt ergash gapda qo'llaniladi, qiyoslash, ketma-ketlikda ham, payt bog'lovchisi ma'nosida "-gacha", "-guncha" qo'shimchalari bilan tarjima qilinadi. Ketma-ketlikni ifodalovchi bog'lovchi sifatida **tant que** "shuning uchun" ifodasi bilan tarjima qilinadi. Agar **tant que** qiyoslovchi bog'lovchi sifatida qo'llansa, komponentlar ajratib yozilishi mumkin va "shunday" deb tarjima qilinadi.

Masalan: - *Je ne sais encore, il dépend de circonstances soumises à des combinaisons incertaines. -Je voudrais y être à l'époque où vous y viendrez, je tâcherais de vous rendre, en tant qu'il serait en mon pouvoir, l'hospitalité que vous me donnez si largement à Monte- Cristo. (Le compte de Monte-Cristo, page 328). (- Qachon borishimni ayto olmayman. Bu sharoitga bog'liq. - Siz borguncha men ham Parijda bo'lsam deymen, Monte- Kristoda menga qilgan bu izzat- hurmatingizni qaytarsam deymen). (Graf Monte- Kristo, 362- bet).*

Tel que qo'shma bog'lovchisi ergash gaplarda ketma-ketlikni ifodalaydi. Bu bog'lovchinig komponentlari birga yoki alohida kelishi mumkin. Komponentlar bir bo'lganda, "shundayki" deb tarjima qilinadi.

Masalan: - *Hélas! Je vous dirai comme Lucullus: Si j'avais su avoir l'honneur de votre visite, je m'y serais préparé. Mais enfin, tel qu'est mon ermitage, je le mets à votre disposition; tel qu'il est, mon souper vous est offert. Ali, sommes-nous servis? (Le compte de Monte-Cristo,*

page 325). (- Ming afsus! Men bunga javoban sizga Lukkullning quyidagi so'zlarini takrorlashim mumkin: sizning menikiga tashrif buyurishingizni ilgaritdan bilsaydim, tayyorgarlik ko'rib qo'ygan bo'lur edim. Shunday bo'lsa-da, oddiy kulbam sizning ixtiyoringizda. Jindek ovqat hozirlangan, baham ko'rishlariga mushtoqman. Ali ovqat suzildimi?). (Graf Monte-Kristo, 360-bet).

Tellement que qo'shma bog'lovchisi ketma-ketlikni ifodalovchi bog'lovchi ma'nosida keladi va "naqadar ki" deb tarjima qilinadi. Bu bog'lovchi komponentlari bir bo'lib qo'llanganda ham shunday tarjima qilinadi.

Une fois que qo'shma bog'lovchisi vaqtinchalik bog'lovchi sifatida keladi, "agar faqat", " zahotiyoq" iboralari bilan tarjima qilinadi. Masalan: *Cette proposition étonna fort les matelots, quoique aucun d'eux ne la combattit, au contraire. La patron était un homme si rigide, que c'était une fois qu'on le voyait renoncer à une entreprise ou même retarder son exécution. (Le compte de Monte – Kristo, page 230). (Bu taklif matroslarni juda taajjubga solgan bo'lsa-da, birortasi qarshi so'z aytmedi. Kapitan qatiqqo'l, cho'rtkesar odam, uning bu fe'lini hamma bilardi, u biror marta ham aytganidan qaytmagan va uni bajarishni keyinga surmagan). (Graf Monte- Kristo, 257- bet).*

Vu que qo'shma bog'lovchisi ko'pincha ilmiy- texnik adabiyotlarda qo'llanilib, yuridik dalolatnomalar va rasmiy hujjatlarga tegishli. **Que** bog'lovchisi bilan **voir** fe'lining o'tgan zamon sifatdoshidan tashkil topgan va sabab bog'lovchisi vazifasida keladi, " shu sababli" deb tarjima qilinadi.

Masalan: - *Seulement les femmes il n'en est bien sûr, vu qu'elles ne sont entrées qu'après qu'il est mange du hachisch; de sorte qu'il se pourrait bien que ce qu'il a pris pour des femmes fût tout bonnement un quadrille de status. (Le compte de Monte – Kristo, page 470). (- Xotinlar masalasiga kelganda u ishonmayapti, chunki ular taryokni urib olgandan so'ng paydo*

bo'lgan, ehtimol xaykallarni ko'rib xotinlar deb xayol qilgandir). (Graf Monte – Kristo, 515-bet).

Que bog'lovchisi va olmoshiga ega **qui que, quoi que, quel que, quelque ... que**, bog'lovchi so'zlar murakkab to'siq gaplarda ishlatiladi.

Masalan : - *Mais je crois que oui, mon cher Edmond, **quoique** je ne l'ai pas aperçu. -Mon père est fier, monsieur, et eût-il manqué de tout, je doute qu'il eût demandé quelque chose à **qui que** ce soit au monde, excepté à Dieu. (Le compte de Monte – Kristo, page 9).* (- Men, azizim, otangizni ko'rganim yo'q, biroq o'ylaymanki, u sog'-salomat bo'lsa kerak. – Otam juda mag'rur : boshidan qanchalik muhtojlik kechirmasin, Xudodan boshqa hech kimdan yordam so'ramaydi). (Graf Monte – Kristo, 11-bet).

*Il supplia un jour le géolier de demander pour lui un compagnon, **quel qu'**il fût, ce compagnon dût-il être cet abbé fou dont il avait entendu parler. (Le compte de Monte – Kristo, page 131). (U turma xodimidan kim bo'lmasin biror odamni yoniga qo'yishlarini so'rab, ta'rifini eshitgan o'sha jinni abbat bo'lsa ham mayli, deb yalinib yolvordi). (Graf Monte – Kristo, 150-bet).*

*Tous les mois se passa dans ses efforts inouïs de la part de Morrel pour réunir toutes ses ressources. Autrefois son papier, à **quelque date que** ce fût, était pris avec confiance, et même demandé. (Le compte de Monte – Kristo, page 295). (Butun iyul oyi zarur summani to'lash uchun Morrel jonini boricha harakat qildi. Uning bu majburiyatlari qanday bo'lmasin, zo'r ishonch bilan qabul qilinar va umuman bunga bozori chaqqon edi). (Graf Monte – Kristo, 327-bet).*

Où que. **Où** ravishi va **que** bog'lovchisidan iborat **où que** to'siq bog'lovchi ma'nosida keladi va « qayerda bo'lmasin » deb tarjima qilinadi. Masalan : *C'éteit ce jeune homme que sa mère et sa soeur appelaient à leur aide pour les soutenir dans la circonstance grave où elles sentaient qu'elles allaient se trouver. (Le compte de Monte – Kristo, page 297). (Yosh ofitserni shu qora kunlarda qayerda bo'lmasin yelkadosh bo'lishi*

uchun onasi va singlisi yordamga chaqirayotgan edi). (Graf Monte – Kristo, 330-bet).

Si ... que, tout ... que, quelque ... que, pour ... que qo'shma bog'lovchili so'zlar to'siq bog'lovchilar ma'nosida qo'llaniladi. Kesimning asosiy qismi **si, tout, quelque** ravishlari o'rtasida turadi yoki **pour** predlogi va **que** bo'g'lovchisi o'rtasida turadi, undan keyin ega va kesim keladi. **Si ... que, tout ... que, quelque ... que, pour ... que** bog'lovchili so'zlar bilan kelgan gaplar to'siq ergash gaplar bilan tarjima qilinadi.

Masalan : *Au reste, Jacopo, qui en le voyant tomber, l'avant cru mort, s'était précipité sur lui, l'avait relevé, et enfin, une fois relevé, l'avait soigné en excellent camarade. Ce monde n'était donc pas si n'était donc pas plus si méchant que le voyait Dantés qui Dantés, puisque cet homme, qui n'avait rien à attendre de son compagnon que d'hériter sa part des primes, éprouvait une si vive affliction de le voir tue ? (Le compte de Monte – Kristo, page 222).* (Bordiyu, Jakopo Dentes o'lsa foydadan olgan ulushi menga qoladi deb tama qilmay Edmon o'lib qoldi deb shu qadar qayg'urar ekan, demak, dunyo doktor Pangloses o'ylaganidek, shafqatli bo'lmasada, Dantes o'ylagandek, bevafo, bemehr emas ekan). (Graf Monte – Kristo, 249-bet).

Ce qui n'amenait pas une seul joli femme à récompenser d'un seul regard, même de curiosité, tout le mouvement que se donnait Albert. (Le compte de Monte – Kristo, page 381). (Ammao Alberning bu urinishlaridan foyda chiqmadi, biror go'zal unga hech bo'lmagada shunchaki qiziqsinib ham qarab qo'ymadi). (Graf Monte – Kristo, 419-bet). Ba'zan **si ... que** iborasida **que** qoldiriladi, ega kesimdan keyin keladi. **Si ... que** bilan birgalikda hozirgi fransuz tilida **aussi ... que** iborasi uchraydi va « qanaqa bo'lmasin », « nimaiki bo'lmasin » bog'lovchi iboralari bilan tarjima qilinadi.

Masalan : - *D'ailleurs, si son excellence veut, nous pourrons partir aussitôt après la chasse ; elle soit que nous faisons aussi bien voile la mit que le*

jour et qu'à défaut de voile nous avons les rames. (Le compte de Monte – Kristo, page 311). (- Istasangiz ov tugashi bilanoq qaytib ketaveramiz, ixtiyor sizda, bizga baribir: kechasiyam, kunduziyam yelkanlar ostida yurib o'rganib qolganmiz, mobodo biror zarurat tug'ilgudek bo'lsa, eshkaklarni ishga solib suzaveramiz). (Graf Monte – Kristo, 345-bet).

Fût-que, serait-ce, ne fût-ce que, ne serait-ce que bu bog'lovchi so'zlar to'siq bog'lovchilar ma'nosida qo'llaniladi, « atigi », « mayli » deb tarjima qilinadi.

Masalan : - *Que feriez-vous à ma place ? fit le jeune homme.*

-*Moi, qui n'a rien à perdre, j'irai.*

-*Vous accepteriez ?*

-*Oui, ne fût-ce que par curiosité. (Le compte de Monte – Kristo, page 321). (- Mening o'rnimda o'zingiz bo'lganingizda nima qilardingiz? - Mening qo'rqadigan joyim yo'q, boraverardim. -Taklifni qabul qilarmidingiz? -Ha, qiziqqanimdan qabul qilardim). (Graf Monte – Kristo, 356-bet).*

Biriktiruvchi bog'lovchilar o'rtasida **aussi, encore** va **toujours est-il que** bog'lovchi iborasini ta'kidgalash kerak, ularning tarjimasi murakkabdir. **Encore** kelib chiqishiga ko'ra ravish hamdir, lekin gapning boshida kelsa inkor ma'nosiga ega bo'ladi va « biroq » deb tarjima qilinadi. Ba'zan **encore** gapga yangi qo'shimcha ma'noni berishi mumkin, « shu sababli » deb tarjima qilinadi.

Masalan : *Il se disait que c'était la haine des hommes, et non la vengeance de Dieu qui l'avait plongé dans l'abîme où il était ; il vouait ces hommes inconnus à tous les supplices dont son ardente imagination lui fournissait l'idée, et il trouvait encore que les plus terribles étaient trop doux et surtout trop court pour eux ; car après le supplice venait la mort : et dans la mort était, sinon le repos, du moins l'insaisissable qui lui ressemble. (Le compte de Monte – Kristo, page 133). (“ Meni xalokat jariga itarib tashlagan Xudoning qahri emas, odamlarning g'azabi-*

nafrati” derdi u o’ziga-o’zi. O’sha noma’lum odamlarni og’ziga nima kelsa qaytarmay haqorat qilar, qarg’ar, ularga jo’shqin – yosh tasavvuri bovar eta oladigan turli xil o’limlarni tilardi; lekin bularga ko’ngli to’lmas, chunki qatl etigach, odam murdaga aylanadi, murda esa hamma hissiyotlardan mahrum bo’lib, hech narsani sezmaydi, derdi). (Graf monte – Kristo, 153-bet).

Toujours est-il que bog’lovchili ifodada eganing inversiyasini **-il** yakunlab, **toujours** so’zi hisoblanmaydi, « har qanday holatda », « nimaiki bo’lmasin » deb tarjima qilinadi.

3.2 Bog’lovchili so’zlar.

Sodda bog’lovchilar: **comme, quand, que, si**.

Comme bog’lovchisi payt, taqqoslash va sabab holli ergashgan gaplarda ishlatiladi. **Comme** qiyoslash bog’lovchisi o’zbek tiliga “qanday” deb tarjima qilinadi. **Commes** sabab bog’lovchisi sifatida “shuning uchun” deb tarjima qilinadi va “**puisque**” bog’lovchisining sinonimi bo’ladi va ergash gap bosh gapdan oldin keladi. **Comme** bog’lovchisi muhim turdagi gaplarni boshqarib, ular sabab ergashgan gaplarga kiritilishi mumkin. Bunday hollarda gaplardagi kesimning asosiy qismi birinchi kelib fe’lga bog’lanadi.

Quand bog’lovchisi asosan payt ergash gapni boshqaradi. Payt ma’nosidagi bog’lovchi **quand** « qachon » deb tarjima qilinadi. **Quand** « agarda » deb tarjima qilinishi ham mumkin. Bu holda **quand** mayl ergash gapni boshqarib, fe’lni ergashtiradi va bosh gap conditionnel, chunki ergash gaplardagi **quand** bog’lovchisida fe’l indicatifda bo’ladi, mayl ergash gapdagi **quand même** yuklamasi yordamida ma’no kuchaytirilishi mumkin. **Quand même** o’zbek tiliga « shunday bo’lsada » deb tarjima qilinadi.

Que bog’lovchisi asosan to’ldiruvchi ergashgan gaplarni boshqarib, murakkab bog’lovchilar o’rnida ishlatiladi, u hol ergash gaplarni boshqaradi. **Que** bog’lovchisi murakkab gaplarda, hol ergash gapli qo’shma gaplarda boshqa bog’lovchilar o’rnida kelishi mumkin. Bu holda tobe

bog'lovchi gapda bir marta ishlatiladi, birinchi ergash gapning boshida, qolgan hollarda ergash gaplarning ichida keladi.

Masalan: *-Allons, allons, dit le jeune homme, j'ai meilleure opinion que vous des femmes en general Mercédès en particulier, et j'en suis convaincu, **que** je sois capitaine ou non, elle me restera fidèle. (Le comte de Monte Cristo, page 17).* (–Ammo men xotin-qizlar haqida sizga qaraganda yaxshiroq fikrdaman, shu sababli ham, kapitan bo'lamanmi, bo'lmaymanmi, baribir Mercedes menga sodiqligicha qoladi). (Graf Monte Kristo 19-bet). Ushbu gapdagi **que** bog'lovchisi sabab bog'lovchisi o'rnida kelib, «*shu sababli*» deb tarjima qilingan va bu yerda bog'lovchining ma'nosi to'liq saqlangan, grammatik me'yorga amal qilingan.

Si bog'lovchisi shart ergash gapda, payt, sabab, mayl ergash gaplarda ham qo'llanadi va o'zbek tiliga «*agar*», «*agarda*» deb tarjima qilinadi. Masalan: ***Si** cette lettre était tombée entre les mains d'autres à cette heure mon père, vous seriez fusillé peut-être. (Le comte de Monte Cristo, page 105).* (Bu xat agar boshqa birovning qo'lga tushib qolganda sizni allaqachon otib tashlardilar. (Graf Monte Kristo 119-bet). Ushbu gapdagi **si** shart bog'lovchisinung ma'nosi tarjimada to'liq saqlangan. Grammatik me'yorlarga amal qilingan. Lekin quyidagi misolni oladigan bo'lsak: ***Si** c'est comme comptable que vous me faits cette question, je crios qu'il n'y a rien à dire et que vous serez content de la façon dont se besogne est faite. (Le comte de Monte Cristo, page 11).* (Buxgalter sifatida unga hech qanday e'tiroz bildirish mumkin emas. Siz ham uning xizmatidan mamnun bo'lursiz albatta). (Graf Monte Kristo 12-bet). Ushbu gapdagi **si** bog'lovchisining hech bir ma'nosi tarjimada sezilmaydi.

Voqea-hodisalarning natijasini ifodalaydigan **donc**(demak, binobarin, shunday ekan bog'lovchisini) quyidagi misolda ko'ramiz: *Eh ! Te voila **donc** revenu, Edmond ? Dit-il avec un accent marseillais des plus prononces et avec un large sourire qui découvrait ses dents blanches comme de l'ivoire. (Le comte de Monte Cristo, page 14).* (O'ho' ! Edmond,

kelibsizda, -dedi u marselliklar talaffuzida iljayib, oppoq tishlarini ko'z-ko'z qilib). (Graf Monte Kristo 16-bet). Ushbu misoldagi **donc** bog'lovchisining tarjimasi aynan keltirilmagan bo'lsada, lekin uning mazmuni matnda sezilib turadi.

Or (ammo, lekin, biroq) bog'lovchisi quyidagi misolda ish harakatni nihoyasini ifodalagan: **Or** *comme une heure et un quart viennent de sonner, je ne crios pas me tromper de beaucoup en disant que dans une heure trente minutes Mèrcèdes s'appellera madame Dantès. (Le comte de Monte Cristo, page 40). (Mana hozir birdan chorak o'tdi, bir soatu o'ttiz daqiqadan so'ng Mercedes Dentes xonim bo'lib qoladi, desam xato qilmagan bo'laman).* (Graf Monte Kristo 45-bet). Ushbu misoldagi bog'lovchining aynan tarjimasi berilmagan bo'lsada biz uning matn mazmunidan aniqlab olishimiz mumkin.

Natija bog'lovchisi « **De sorte que** » ni quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin: *-Dame ! Il paraît que la chose lui est promise par M.Morrel. – De sorte qu'il est bien joueur ? (Le comte de Monte Cristo, page 18). (-Chamamda Morrel unga va'da bergan, shekilli.... . – U juda o'zida yo'q xursand degin ?).* (Graf Monte Kristo 20-bet). Ushbu misolda qo'llanilgan bog'lovchisining mazmuni tarjimada aynan qo'llanmagan. Uning mazmuni qanday ma'noda kelayotganini matndagi ma'no orqali anglab olishimiz kerak. Ushbu misoldagi bog'lovchining ma'nosi matnda saqlanmagan.

III bobga xulosa.

Shunday qilib, bu bo'limda biz qo'shma bog'lovchilarning bir nechtasini keltirib o'tdik va bu qo'shma bog'lovchilarning xususiyatlarini, o'zbek tilidagi bildirayotgan mazmun munosabatlarini misollar yordamida ko'rdik. Qo'shma bog'lovchilar ikki yoki undan ortiq qismlardan tashkil topadi va shuning uchun ham ular qo'shma bog'lovchilar hisoblanadi.

Qo'shma bog'lovchilar turli so'zlar yordamida, jumladan, predloglar, fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshi, ravishlar, ot va boshqalardan yasaladi.

Fransuz tilida ishlatiladigan bog'lovchili gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida, bog'lovchilarni ko'p ma'noda qo'llanishi natijasida bir qancha chalkashliklarga duch kelishimiz mumkin. Bu holda gaplarda qo'llangan so'zlarning aynan tarjimasi emas, balki ularning ko'chma ma'nolarda, ya'ni, stilistik jihatdan qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Biz badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida vazifasiga ko'ra turlicha bo'lgan bog'lovchilar bilan ishlaymiz, lekin shunday bog'lovchilar borki, ularning vazifasi, ma'nosi gap tarkibida sezilmasligi mumkin, shunday bo'lsa ham bu bog'lovchilar gap qurilishiga, gaplarni bog'lanishiga ko'ra katta ahamiyatga ega..

UMUMIY XULOSA

Birinchi bobda biz soʻz turkumlarini umumiy taʼrifi va leksik, grammatik xususiyatlariga mulohazalarni keltirdik. Soʻz turkumlarini mustaqil soʻz turkumlari, yordamchi soʻz turkumlari va alohida olingan soʻzlar guruhiga ajratdik. Yordamchi soʻz turkumlarini ham, oʻz navbatida, uch turga boʻldik. Boʻgʻlovchilarni esa ana shu yordamchi soʻzlar turkumiga kiritdik. Bundan tashqari asosiy soʻz turkumlari va asosiy boʻlmagan soʻz turkumlarining aniq vazifalari haqida soʻz yuritdik.

Mashhur tilshunos olimlar, jumladan, Sharl Ballining soʻz turkumlarini ajratishdagi fikrlarini, tilshunos J. Galishening esa soʻz turkumlarini bir nechta kategoriyalarga ajratganini keltirib oʻtdik. A. Sovajo esa soʻz turkumlarini uchta katta sinfga ajratganini, nazariyotchi olim V.G. Gakning esa grammatik nazariyalar haqidagi bir nechta sharhlarini keltirdik. Asosiy boʻlmagan soʻz turkumlari ichidan bogʻlovchilarni gapdagi vazifalari va funksiyalarini koʻrdik. Demak, bogʻlovchilar mustaqil leksik maʼnoga ega boʻlmagan, lekin grammatik ahamiyatga ega boʻlgan yordamchi soʻz turkumi hisoblanadi.

Ikkinchi bobda biz bogʻlovchilarni qoʻshma gaplarda qoʻllanishini, ularni mazmun munosabatiga koʻra turlarini koʻrib chiqdik. Fransuz tilidagi baʼzi sodda bogʻlovchilar, ularning gapdagi maʼno-vazifalarini koʻrdik. Biz bilamizki, bogʻlovchilar gaplarni bogʻlash xususiyatiga koʻra teng va ergashtiruvchi, qoʻllanish xususiyatiga koʻra esa yakka va takroriy bogʻlovchilarga boʻlinadi. Teng bogʻlovchilarni ham mazmun-munosabatiga koʻra bir necha turlarga boʻldik hamda har birining oʻziga xos va oʻxshash jihatlarini misollar orqali koʻrsatib berdik. Fransuz tilida shunday bogʻlovchilar ham borki, ular gapning mazmuniga qarab bosh maʼnosidan ikkinchi darajali maʼnosini qoʻllaganimizda oʻzbek tiliga muqobil maʼnoda chiroyli tarjima chiqarishimiz mumkin boʻladi. Ergashtiruvchi bogʻlovchilarni ham turlarga ajratgan holda sodda gaplarni bir-birida ergashtirish yoʻli bilan bogʻlash xususiyatlarini koʻrib chiqdik va toʻrtta asosiy sodda ergashtiruvchi bogʻlovchilarga ham alohida toʻxtalib oʻtdik.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar ham qo'shma gaplarni yasashda muhim rol o'ynaydi. Biz ularning ko'pchiligini bu bo'limda keltirib o'tdik va misollar yordamida ularning vazifalari hamda xususiyatlarini to'liqroq berishga harakat qildik.

Uchinchi bo'limda biz qo'shma bog'lovchilarning bir nechtasini keltirib o'tdik va bu qo'shma bog'lovchilarning xususiyatlarini, o'zbek tilidagi bildirayotgan mazmun munosabatlarini misollar yordamida ko'rdik. Qo'shma bog'lovchilar ikki yoki undan ortiq qismlardan tashkil topadi va shuning uchun ham ular qo'shma bog'lovchilar hisoblanadi.

Qo'shma bog'lovchilar turli so'zlar yordamida, jumladan, predloglar, fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshi, ravishlar, ot va boshqalardan yasaladi.

Fransuz tilida ishlatiladigan bog'lovchili gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida, bog'lovchilarni ko'p ma'noda qo'llanishi natijasida bir qancha chalkashliklarga duch kelishimiz mumkin. Bu holda gaplarda qo'llangan so'zlarning aynan tarjimasi emas, balki ularning ko'chma ma'nolarda, ya'ni, stilistik jihatdan qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Biz badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida vazifasiga ko'ra turlicha bo'lgan bog'lovchilar bilan ishlaymiz, lekin shunday bog'lovchilar borki, ularning vazifasi, ma'nosi gap tarkibida sezilmasligi mumkin, shunday bo'lsa ham bu bog'lovchilar gap qurilishiga, gaplarni bog'lanishiga ko'ra katta ahamiyatga ega..

Fransuz va o'zbek tilidagi bog'lovchilar nisbatan vazifasi hamda qo'llanishi jihatdan bir-biriga o'xshash va biz ularni grammatik jihatdan qiyoslab o'rganishimiz mumkin ekan. Fransuz tilida tarjima jarayonida ham bog'lovchilar muhim ahamiyatga ega va gaplarning mazmunan mos kelishida muhim rol o'ynaydi. Bog'lovchilarsiz gaplar mazmunan birikmaydi va tugal ma'noga ega bo'lmaydi yoki keraksiz joyga ham bog'lovchilarni qo'llash ham gapning mantiqiy mazmuniga putur yetkazadi. Shuning uchun bog'lovchilarni o'z o'rnida qo'llay olish juda muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2012-yil 10-dekabr. Toshkent.
2. Абросимова Т.А. Хрестоматия по теоретическоé грамматике французского языка (на фр.яз.). Л., 1972.
3. Адмони В.Г.Опыт классификации грамматических теории-ВЯ.1971.
4. Андриевская А.А. Синтаксис современного французского языка. Киев, 1973.
5. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков Москва. « Просвещение».1989
6. Балли Ш. Общая лингвистика М. 1974
7. Бенвенист Э.Общая лингвистика М. 1974
8. Буранов Д.Ж Сравнительная типология англиского и тюрских языков Москва. «Высшая школа» 1989
9. Дюма А. «Граф Монте Кристо» Биринчи китоб. Янги аср авлоди 2013 й. 752 б.
- 10.Гак. В. Г. « Беседы о французком слове - М. Международный отношения. 1966ю 287с.
- 11.Гак. В. Г. « Théorie de la grammair française» Москва 1984 г. 246с.
- 12.Шор Е.А. «Практическая грамматика французкого языка для научных работников» Изделство «Наука» Москва 1984 г.158 с.
- 13.Николская Е.К, Голденберг Т.Й «Grammairefrançaise» Москва 1974 г. 264 с.
- 14.Костенцкая Е.О. “Трудности перевода с французкого языка на русский “ (Сборник статей) Изд. АкадемииНаук. Москва 1959.
- 15.Попова И.Н, Казакова А.Ж. « Французкий язык». Издельство Нестор Академик. 2007. 480с.

16. Мешковская-Светлова Н. В, Пигальская М.К, Струкова М.П. «Грамматика по французскому языку» Москва 1989 г. 298 с.
17. Быховская Р.Г, Дыбовская И.К, Костецкая Е.О «Трудности перевода с Французского языка на русский» Москва 1959 г. 356 с.
18. Dumas A «Le comte de Monte-Cristo». Troisième édition. Moscou 1963. 686 p.
19. Martinet A “Grammaire structurale du français moderne” P. 1970.
20. Damourette J et Pichon E. “Essai de grammaire de la langue française” 2-édition. Paris. 1971.
21. Damourette J et Pichon E. Des mots à la pensée. “Essai de grammaire de la langue française”-P.2-édition, 1968-71.
22. « Grammaire Larousse du français contemporain ». 1964
23. Gak V.G “Fransuz tili nazariy grammatikasi” Moskva 1984.
24. Le français au présent. Grammaire. Paris. 1989.
25. Hamroyev M « O'zbek tili» Sharq – Toshkent 2011-y. 176 b.
26. Abdurahmonov G' “O'zbek tili grammatikasi” Toshkent. O'qituvchi. 1996.
27. Orziqulov H “ Fransuz tili nazariy grammatikasi”. Samarqand. 2000.

Internet saytlar

www. Ask.ru

www. google. fr

www.google.ruwww.ziyonet.uz

Аннотация

Мазкур битирув малакавий ишида француз тилидаги боғловчилар ва уларнинг грамматик маъно сифатида қўлланилиши ҳамда сўз ва боғловчи конструкциялар таҳлил қилинади.